

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM VAZIRLIGI

QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası

XOLMATOVA SABOHAT ILXOMOVNANING

**“Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida omonim, antonim,
sinonim, paronimlarning berilishi va ularni o'qitish
uslubiyoti”**

5A111701 – “Boshlang'ich ta'lim”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlar nomzodi,dotsent

D. Jamoliddinova.

Qo'qon 2014 yil

Mundarija

Kirish.....	3
I. Bob. Badiiy matnni shakllantiruvchi ayrim leksik vositalar.....	9
1.1. Omonim so'zlar.....	9
1.2. Sinonim so'zlar.....	16
1.3. Antonim so'zlar.	28
1.4. Tarixiy va arxaik so'zlar.....	
II. Leksik vositalarni tushuntirishda didaktik o'yinlar o'quvchini ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi vosita sifatida.	
1.1. Keyingi bo'g'inni to' o'yini	53
2. 2. "Sirli kataklar" o'yini:.....	16
2.3. "Savol-javob" o'yini	16
2.4. "Qaysi so'z noo'rin?" o'yini.	17
2.5. "Kungaboqar" o'yini.	18
2.6. "Quvnoq daqiqalar" o'yini.....	20
7. "Sirli xalqachalar" o'yini.....	
8. "Quvnoq soat" o'yini.....	
III. Badiiy matnni shakllantiruvchi vositalarni o'qitish uslubiyoti.	
2.1. Omonimlarni o'zlashtirish usullari.	
2.2. Sinonimlarni o'zlashtirish usullari.....	
2.3. Antonimlarni o'zlashtirish usullari.	
2.4. Tarixiy va arxaik so'zlarni o'zlashtirish usullari.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	
Ilovalar	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi O'zbekiston Mustaqilligining 22 yilligi nishonlanayotgan sharaflı yilda O'zbekiston xalqi munosib yutuqlarga erishdi. Shu jumladan xalq ta'limi, madaniyat va s'ort, san'at sohalarida katta yutuqlarga erishildi. O'zbekiston prezidenti rahbarligida bozor iqtisodiyoti sharoitida olib borilayotgan dono siyosat sharofati bilan mamlakatimiz dunyo hamjamiyati rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilmoqda. Shu bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar olib borilya'tiki bu ta'limga katta e'tibordir. Inchinun, yurtboshimiz tomonlaridan 2014 yilni "Sog'lom bola yili"¹ deb e'lon qilinishi, hamda sog'lom bola yili davlat dasturining ishlab chiqilishi ham fikrimiz isbotidir. Boshlang'ich ta'lim- ta'lim jarayonining muxim negizi sanaladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan xolda "Sog'lom bola yili" davlat dasturining 71-punktida quyidagicha fikr yuritiladi: "Boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish, shu jumladan: 1-4 sinflar uchun shu yoshdagi bolalarning psixologik-fiziologik o'ziga xosliklarini hisobga olgan xolda o'quv dasturlari va darsliklarini tanqidiy qayta ko'rib chiqish, o'qitish jarayoniga"

1. Sog'lom bola yili o'quv dasturi 2014 yil 19-fevral Prezidentni 21-33 sonli qarori Qadim-qadimdan buyuk Turon zaminida ilm-fanga, ayniqsa ona tiliga katta e'tibor berilgan. Hususan shu tilda ijod qilgan Yusuf Hos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur yaratilgan asarlar turkiy hozirgi o'zbek tili uchun asos bo'ldi. Bu tilda yaratilgan asarlar o'zining ahamiyati bilan barcha – barchani lol qoldirib kelmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi huquqiy asoslari yaratib berildi, ya'ni oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limining yangi modeli - «O'zbek modeli» yaratildi. Bu model yaratilishida rivojlangan davlatlar kasb-hunar ta'limi tizimi jiddiy o'rganilib, bunda o'zlikka xos bo'lgan milliylik o'z ifodasini to'di.

Yurtboshimiz eng bebaho resurs – bu intellektual salohiyat deb ta'kidlagan holda, aql-zakovatli, yuksak madaniyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olishimiz, shundagina yurtimizda farovonli va taraqqiyot qaror to'ishi, mamlakat rivoji uchun intellektual salohiyat naqadar muhim resurs ekanini doimo ta'kidlab keladilar.

Bugungi murakkab globallashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oyalar hamda mafkuralar ta'siridan saqlash, himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. G'oyat muhim va hal qiluvchi masalalar o'rta qo'yilgan «Yuksak ma'naviyat engilmas kuch²» asarida mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarning yuqori sinflarida, akademik lisey va kasb- xunar kollejlarida tahsil olayotgan o'quvchilar, oliy o'quv yurtlarining talabalari, olim va tadqiqotchilar, o'qituvchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchilik vakillari, umuman, ma'naviyat va ma'rifat dunyosi bilan qiziqadigan barcha insonlar foydalanishi mumkin.

Ko'rinib turibdiki, Prezidentimiz asarlarida ham ta'lim – tarbiyaga juda katta ahamiyat berilgan buni biz yuqoridagi misolda ham ko'rishimiz mumkin. Bejiz bu

asar “Yuksak ¹ma’naviyat yengilmas kuch” deb atalmagan. Negaki qaysi inson ma’naviy tomondan boy bo’lsa ²uni hech qanday kuch yenga olmaydi. Shuni nazarda tutib qaraganda yurtboshimiz bu borada uzoqni ko’zlab ish olib borganliklarini guvohi bo’lamiz. Biz, yoshlar bunday sharoitlardan unumli foydalana olish zarur .

Ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o’zgalar fikrini anglash, o’z fikrlarini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o’rinda ona tili ta’limiga o’quv fani emas, balki, butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta’limi standarti ko’rsatkichlari³ bolani fikrlay olish, ifodalangan fikrni anglash va o’z fikrini savodli, mantiqiy izchillikda bayon eta olishga o’rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang’ich ta’lim bosqichida o’quvchilarning ona tili ta’limi bo’yicha tayyorgarlik darajasiga qo’yiladigan talablar quyidagi uch parametrlil standart mezon orqali aks ettiriladi: o’qish texnikasi, o’zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

"Ta’lim to’g’risida"gi Qonunda ta’limning ravnaqi, uning insonparvarligi, ta’lim va tarbiya tizimining uzluksizligi, ilmiyligi va dunyoviyligi, ta’limda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ustuvorligi, davlat ta’lim standartlari doirasida hammaning bilim olishi uchun imkoniyat yaratilishi ta’kidlab ko’rsatilgan.

Uzluksiz ta’lim tizimida boshlang’ich ta’lim muhim bosqich hisoblanadi va unda ona tilini o’qitish asosiy o’rin egallaydi. Boshlang’ich sinflar ona tili ta’limi o’quvchilarda nutq faoliyatining asosiy turlarini o’stirish bilan bir qatorda, quyidagi muhim masalalarni hal etishni ko’zda tutadi:

Boshlang’ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o’zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so’zlarning o’zgarishi va gapda so’zlarning bog’lanishi haqidagi, so’zlarning morfemik tarkibi va so’z yasalishi, so’zlarning leksik - semantik guruhi haqidagi, o’zbek tilining to’g’ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o’quvchilar nutqini o’stirishga xizmat qiladi.

Ona tili o’qitishning mazmuni va metodlari o’quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko’nikma va malakalar hosil qilishga ko’maklashishi lozim.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang — barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o’zbek tilidan bemalol — erkin, samarali va to’g’ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to’laqonli bahramand bo’lish, zaruriy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari kerak.

¹ I.A.Karimov “Sog’lom bola yili” Davlat dasturi va “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asari.

² Boshlang’ich ta’limga oid yangi tahrirdagi DTS 2010 –y.

«Ona tili» darslarida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. Shuning uchun ushbu dastur va u asosida yaratilajak darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi.

Ona tili ta'limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Og'zaki nutq madaniyatini egallash, unga xos xususiyatlarni bilish; o'quvchilarni gap va nutqni grammatik, orfografik, stilistik jihatdan adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda tuzishga o'rgatish. Og'zaki nutqni rivojlantirish uchun o'quvchilar lug'at boyligini izchil oshirib borish, gapning sintaktik tuzilishiga oid bilimlarni amaliy jihatdan egallash, nutq birliklari o'rtasidagi mantiqiy uyg'unlikni ta'minlashga oid malakalarni rivojlantirish, yangi harf-tovushga bog'lab tavsiya etilgan so'zlar ma'nosini o'quvchilar to'liq anglashiga erishish, rasm asosida o'zaro bog'langan kichik hikoyalar tuzishga o'rgatish.

Lug'at ustida ishlash. O'quvchilar nutqini boyitish, ular nutqida kam qo'llaniladigan so'zlarni alohida yozdirib borish, dars jarayonida lug'at daftaridagi so'zlarning ishlatilishiga e'tibor berish bilan qo'shib olib borilish.

Sinfdan tashqari o'qish uchun hajm va mazmun jihatidan 1-sinf Alifbe davri uchun mos ertak, hikoya, masal kabilarni to'g'ri tanlash va o'qish. O'qigan asarlaridagi qahramonlar xatti-harakatini, she'r, to'ishmoq, maqol, tez aytishlarni elementar baholay olishi lozim. Har bir haftaning oxirgi o'qish darsidan 20 daqiqasi sinfdan tashqari o'qish uchun ajratiladi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari uchun sinf kutubxonasini tashkil qilish lozim.

O'quvchilarni sinfdan tashqari o'quv material bilan tanishtirishda ifodali, jonli nutq sharoiti, pedagogik mahorat va artistlik ko'maklarini uyg'un qo'llash lozim.

Sinfdan tashqari o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarning ota-ona yoki o'qituvchi ko'magida o'rgangan she'r, hikoya va ertaklaridan namuna aytib berishlari, uyda bolani kitobga havas uyg'otuvchi muhit yaratishga erishish.

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyati va yozma nutqini, tafakkurni o'stirish, ularda bilim olishga qiziqishni o'stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi. Bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Boshlang'ich sinflarda fonetika, grammatika, to'g'ri yozish va nutq o'stirishdan beriladigan boshlang'ich ma'lumotlar o'rta maktablarda o'qitiladigan ona tili va adabiyot sistematik kurslarining materiallari bilan bog'lanadi va o'zbek tilining turli tomonlariga oid keng tushunchalarni qamrab oladi. O'quvchilar boshlang'ich sinflarda so'zlarning fonetik tarkibi bilan, so'zlarni bo'g'inlarga va ma'noli qismlarga bo'lish bilan, so'z turkumlari va gap turlari, gap bo'laklari bilan

bir qator to'g'ri yozuvni yozish qoidalarini bilan tanishadilar. Dasturga ko'ra, o'quvchilarni so'zning leksik ma'nolari bilan, ya'ni sinonim, antonim va ko'p ma'noli so'zlar bilan tanishtirish ham ko'zda tutiladi.

Fonetika, leksika, grammatika, to'g'ri yozuvdan boshlang'ich bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bolalarning fikrlash qobiliyatlari o'sadi; ular til hodisalarini tahlil qilishga, qiyoslash³ga, umumlashtirishga va guruhlashga, o'z nutqlarida til birliklari — so'z va gaplarni to'g'ri qo'llashga o'rganadilar.

4-sinfda o'quvchilar otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishik qo'shimchalari bilan turlanishi va asosiy so'roqlariga qarab ularning Boshlang'ich sinflarda so'z leksik-grammatik tomondan o'rganiladi. Lug'at ustida ishlashga katta e'tibor beriladi. Lug'aviy mashqlar grammatika va to'g'ri yozishni o'rganish bilan bog'liq holda olib boriladi (Leksikadan nazariy bilim berilmaydi). O'quvchilar o'qish, grammatika, yozuv imlo materiallarni o'rganish bilan bog'liq holda, so'zlar shaxs va narsalarning nomini, harakatini, belgisini, sanog'i va tartibini ifodalashi, yaqin va qarama-qarshi (zid) ma'noni bildirish, matnlarda har xil ma'noda ishlatishni bilib oladilar; ular o'z fikrlarini to'g'ri va aniq ifodalashga, fikrga mos so'zlar tanlay olishga o'rgatib boriladi.

So'z turkumlariga o'quvchilar ikkinchi sinfda tayyorlanadilar. Ular kim? (kimlar?), nima? (nimalar?) so'rog'iga javob bo'lgan, shaxs va narsalar nomini, qanday?, qanaqa?, qaysi? so'roqlariga javob bo'lgan, shaxs va narsalarning belgisini, nechta?, qancha?, nechanchi? so'roqlarga javob bo'lgan so'zlar sanog'i va tartibini, nima qildi?, nima qiladi?, nima qilyapti? so'rog'iga javob bo'lgan, narsa va shaxslar harakatini ifodalashni bilib oladilar; ularni ma'lum so'zlarga so'roq bera olishga, u yoki bu so'roqqa javob bo'lgan so'z nimani ifodalashini aytib berishga o'rgatiladi.

Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan ta'limiy ishlarning asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, muomala odobini shakllantirish hisoblanadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq, o'qish va ona tili darslari, atrofimizdagi olam, matematika va boshqa fanlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan bog'liq holda izchillik bilan davom ettiriladi. Nutqiy mashqlardan bog'lanishli nutqqa oid og'zaki va yozma mashqlarga alohida ahamiyat beriladi.

O'quvchilarni har bir darsda kitob bilan ishlashga (o'rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni tezda to'rishga, mashqtopshiriqlarini tartibi bilan izchil bajarishga) bajarilayotgan mashqning maqsadini (nimaga o'rgatishini) tushunishga o'rgatish kerak.

O'quvchilarda bilish jarayonini faollashtirish va ona tilidan beriladigan bilimlarni puxta o'zlashtirish uchun ta'limiy o'yinlar qatnashadigan turli qiziqarli mashqlar, boshqotirma krossvord — kataklarni harflar bilan to'ldirib, o'ylangan so'zlarni to'pishga oid to'ishmoq mustaqil ma'noga ega bo'lgan bir necha so'zdan tuzilgan so'zni to'pish (belbog', gultojixo'roz); so'z yoki gapni shakl, harf, belgilar

³ Ona tili dasrligi 1-2-3-4-sinflar. Toshkent 2012.

bilan ifodalaydigan to'pishmoq; har xil ko'rgazmali qurollar, texnik vositalardan foydalanish va darsda ish orqali bolalarning toliqishining oldini olishga hamda dasturda tavsiya etilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni birgalikda hal etishga erishish zarur.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ishning tadqiqot ob'ektini boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani sistemasidagi yo'nalishlar tashkil etadi. 1,2,3,4-sinflardagi leksik bilim berishga va mustaxkamlashga oid mashqlar va uni o'qitish metodikasi yuzasidan bildirilgan fikrlar, 5111700- "Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'tiladigan ona tili o'qitish metodikasi fani hamda shu bo'limni to'ldiruvchi talaba tanlov fanlari ishning predmetidir.

Tadqiqot maqsad va vazifalari. Umumta'lim maktablarining ona tili darsliklarida leksik bilimlarning berilishi, ularni taxlil qilish hamda yangi pedagogik texnologiyalar orqali darslarni tashkil etish orqali barkamol avlodni tarbiyalash maqsad qilib qo'yilgan. Zero, 2014-yil qabul qilingan "Sog'lom bola" yili davlat dasturining 71-bo'limida prezidentimiz tomonlaridan tahkidlanganidek" Boshlang'ich sinflarda o'qitish sifatini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish, o'qitishning o'yinli shakllaridan keng foydalanish zarur". Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan xolda, tadqiqotda leksik bilimlar berishning o'ziga xos yo'llari turli o'yin shakllari orqali dars ishlanmalari ko'rinishida o'z aksini to'gan. Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar ehtirol etilgan:

1. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklariga kiritilgan badiiy matnni shakllantiruvchi ayrim leksik vositalar xaqida nazariy mahlumot berish

2. Leksik vositalarni o'rgatish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatuvchi vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berish

3. Omonim(shakldosh), sinonim(ma'nodosh), antonim(zid ma'noli) va tarixiy so'zlarni yangi pedagogik texnologiyalar orqali o'qitish uslubiyotini dars ishlanmalari shaklida tadqiq etish. Shu orqali o'quvchilar lug'at boyligini oshirish, ularda ravon, chiroyli nutq malakalarini shakllantirish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari Tadqiqot Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasining "Uzluksiz ta'limning ilmiy va metodik asoslari" ilmiy-amaliy muammosi rejasi asosida amalga oshirilgan.

Ishning nazariy va amaliy natijalari Qo'qon davlat pedagogika instituti bakalavriat talabalari, umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun nashr ettirilgan "O'quvchilarni og'zaki nutqini o'stirish" mavzuidagi o'quv-uslubiy qo'llanmada o'z aksini topgan.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar ro'yxati.

Ishda asosan boshlang'ich sinflar uchun nashr ettirilgan va amalda qo'llanilayotgan "ona tili" darsligidan foydalanildi. Ishning nazariy tomonini yoritishda A.Nurmonov, N.Maxmudov, M.Asqarova, SH.Raxmatullaevlarning darsliklariga tayanib fikr yuritildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi.

Tadqiqot metodologiyasini dialektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Tadqiqotni amalga oshirishda analiz qilish, sintez qilish, qiyoslash, uzviy taxlil, zidlovga qo'yish, zamonaviy pedagogik texnologiya usullari va interaktiv metodlardan keng foydalanildi.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati.

Ushbu tadqiqot natijalaridan bugungi kunda o'qitishning zamonaviy vositalari asosida olib borilayotgan turli tadqiqotlarga muayyan darajada ilmiy materiallar bera olishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot amaliy jihatdan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari va Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv rejasiga kiritilgan "ona tili", "Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" fanlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Boshlang'ich sinf ona tili darsligiga kiritilgan badiiy matnni shakllantiruvchi leksik vositalar xaqida ma'lumot berildi
2. Leksik bilimlar berishga doir tegishli tavsiyalar ko'rsatildi
3. Darslikdagi leksik bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berishga yangicha yondoshildi
4. Leksik vositalarni innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish uslubiyoti dars ishlanmalari shaklida ko'rsatib berildi
5. Ta'limiy o'yinlar orqali ona tili darslarini samarali tashkil etish metodlari berib borildi
6. O'qitish tizimiga amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, taklif, mulohazalar qayd etildi

1-bob. Badiiy matnni shakllantiruvchi leksik vositalar

Badiiy matnni shakllantiruvchi leksik vositalar xilma-xil xususiyatlarga egadir. Ular asosan omonim sinonim tarixiy va arxaik soʻzlardan iborat. Bu leksik vositalardan 3- sinf oʻqish kitobi (M. Umarova, SH. Xakimov Oʻqish kitobi umumtaʼlim maktabiarininig 3-sinf darslik Toshkent. Maʼnaviyat. 2012 yil 296-bet) matnlarida keng foydalanilgan. Biz ishning ushbu boʻlimida leksik vositalar va ularning oʻziga xos xususiyatlari shaklida adabiyotlardagi fikrlarga suyangan holda tahlilga beramiz.

1.1.Omonim soʻzlar

Tildagi ayrim soʻzlar shakliy jihatdan, ayrimlari maʼno jihatdan, bir xillari esa talaffuzi jihatidan oʻxshash boʻladi. Ayrim soʻzlarning maʼnolari esa bir – biriga qarama – qarshi boʻladi. Ana shu xususiyatlarga koʻra soʻzlar quyidagi guruhlariga boʻlinadi.

Omonimlar (grekcha *omos* bir xil, *onomo* yoki *onumo* onom degani – talaffuzi va yozilishi bir hil, ammo maʼnosi har xil boʻlgan soʻzlardir: yuz (ot) – yuz (son), tut (daraxt) – tut (harakat).

Omonimlar bir xil soʻz turkumiga ham, har xil soʻz turkumiga ham oid boʻlishi mumkin: ot – ism, ot – hayvon. Bunda ikkalasi ham bir soʻz turkumiga oiddir. Bir turkum doirasidagi omonimlar qoʻshimchalar qabul qilganda ham omonimligini saqlab qolaveradi .

Omonimlar va koʻp maʼnoli soʻzlarni oʻzaro farqlash zarur. Koʻp maʼnoli soʻzlar qancha maʼnoga ega boʻlmasin, bu maʼnolar oʻzaro bogʻlangan boʻladi. SHu xususiyat koʻp maʼnoli soʻzni omonimlardan farqlaydi. Omonimlar boshqa – boshqa soʻzlar boʻlgani uchun ularning maʼnolari oʻrtasida bogʻlanish boʻlmaydi. Koʻp maʼnoli soʻzlar maʼnolari oʻrtasidagi aloqa uzilsa, omonim vujudga keladi: kun - quyosh (koʻchma maʼno), kun – sutkaning quyosh bilan yoritiladigan yorugʻ qismi (koʻchma maʼno); dam – nafas (oʻz maʼno), dam – bosqon (koʻchma maʼno); koʻk – rang (oʻz maʼno), koʻk - osmon (koʻchma maʼno). hozirgi bu soʻzlar oʻzaro omonimdir. Omonimlarning quyidagi turlari mavjud: 1) leksik

(lug'aviy) omonimlar so'zlar o'rtasidagi omonimlikdir. Soch – a'zo, soch – harakat, oq – rang, oq – harakat.

2) frazeologik omonimlar iboralar, ya'ni ko'chma ma'noli, tasirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi omonimlikdir: boshga ko'tarmoq – e'zozlamoq, boshga ko'tarmoq – to'polon qilmoq.

3) gramatik omonimlar ikki xil bo'ladi: a) morfologik omonimlar qo'shimchalar⁴ o'rtasidagi omonimlikdir: to'kin dasturhon (sifat yasovchi) – ekin (ot yasovchi); b) sintaktik omonimlar so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasida bo'ladi : so'z birikmalarinig omonimligi: yolg'ondan hayron bo'lmoq, (yolg'on gapdan hayron bo'lmoq) - yolg'ondan hayron bo'lmoq (yolg'ondakamiga hayron bo'lmoq).

Til birliklarining ifoda rejasida teng kelish hodisasi omonimiya deyiladi. Bu hodisa nafaqat so'zlarda, balki, grammatik birliklarda ham uchraydi.

Talaffuzi va yozilishi bir hil, lekin ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar leksik omonimlardir.

Masalan: o't (olov) – o't (o'simlik), kamar (qayish, qo'ndan ishlangan belbog') – kamar (daryo, tog'larda suv o'yib ketgan chuqur joy) va hokazo.

Leksik omonimlarning ikki hil turi mavjud: 1) Omoifodalar (omonimlar), 2) Omoshakllar (omoformalar).

Omoifodalar – shakli bir hil, ma'nolari har xil bo'lgan so'zlardir. Odatda, ular bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi, shuning uchun omoifodalar nutqda turli qo'shimchalar bilan qo'llanganda ham omonimlik hususiyatni saqlab qoladi. Masalan, ot (ism ma'nosida) – otim, oting, oti, otni, otga tarzida turlansa, ot (hayvon ma'nosida) ham aynan shunday turlanadi: otim, oting, oti, otni, otga.

Bunday omonimlar ba'zan har xil so'z turkumiga mansub bo'lishi ham mumkin. Buning uchu ular Grammatik shakllanish (qo'shimcha olish) hususiyatiga ega bo'lmaslik kerak. Masalan, albatta (ravish – albatta boraman) – albatta (modal so'z – Albatta, boraman) yoki balki (zidlov bog'lovchisi) – balki (modal so'z –

⁴ A. G'ulomova, M.Qodirova “Ona tili o'qitish metodikasi” Toshkent -2001

Balki, kelmas). Tabiiy (sifat – tabiiy tola) – tabiiy (modal soʻz: Bu gapni sizga aytmasligi, tabiiy).

Omoshakllar – ayrim grammatik shakllardangina (yaʼni, biror qoʻshimcha olganda) teng keladigan soʻzlardir. Masalan: soz (ot, musiqa asbobining nomi) – soz (sifat, yaxshi), burun (ot, kishi organizmining nomi) – burun (payt ravishi, ilgari), tut (ot, daraxt mevasi) – tut (feʼl, ushla). Koʻrinib turibdiki, omoshakllar har xil soʻz turkumlari doirasida yuzaga keladi hamda qoʻshimcha qoʻshilishi bilan oʻzining omonimlik hususiyatini yoʻqotadi, chunki soʻzlar turkum jihatidan har xil boʻlgani uchun turli qoʻshimcha oladi. Omoshakllar omoleksemalar deb ham yuritiladi.

Omoshakllar ot va feʼl, ot va sifat, ot va ravish, son va ot, (qirq – son – qirq – marosim nomi), sifat va ot (yupqa – sifat – yupqa ovqatning nomi) oʻrtasida yuzaga keladi. Albatta, tilimizda ot va feʼl turkumiga mansub omoleksemalar koʻp uchraydi.

Oʻzbek tilida omonimlar ikkitadan tortib oltitagacha boʻlishi mumkin. Tilda omonimlar quyidagi yoʻllar bilan yuzaga keladi:

1. Tilda azaldan mavjud boʻlgan soʻzlarning ayrim shakllari tasodifan teng boʻlib qoladi. Masalan: ot, yoz, yong, yot, shim, qoʻy, osh, ter kabilar.

2. Bir maʼnoli soʻz maʼno koʻchish oqibatida koʻp maʼnoli soʻzga aylanadi, keyinroq, maʼnolar oʻrtasidagi bogʻlanish unutilib bir soʻz negizida ikkita leksema paydo boʻladi. Kun (quyosh) – kun (sutka), kengash, sovuq, issiq, doira va boshqalar.

3. Boshqa tildan oʻzlashtirilgan soʻzlar oʻzaro shaklan teng boʻlib qoladi. A) boshqa tildan kirgan soʻz va oʻz qatlamga oid soʻz: bogʻ (mevazor, tojikcha) – bogʻ (tugun, oʻzbekcha), shamʼa (imo-ishora, arabcha) – shamʼa (choy quyqasi, oʻzbekcha), avra (kiyimning yuza tomoni, tojikcha) – avra (bosh koʻzini aylantirib, oʻz soʻzini oʻtkazmoq, oʻzbekcha).

4. Soʻz yasalishi natijasida omonimlar hosil boʻladi: otliq (ot mingan suvori) – otliq (ismli, nomli), boʻydor (boʻyi odatdan ortiq) – boʻydor (hidi oʻtkir), romchi

(rom yasovchi) – romchi (folbin), qirq (son) – qirq (marosim nomi) va boshqalar.

Nutqimizda omonimlarga yondosh bo'lgan omafon va omograf sozlar ham mavjud.

Omafonlar – talaffuzi bir xil yozilishi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan, to'n (kiyim) – ton (tovush toni), to'rt (son) – tort (konditer mahsuloti).

Omograflar – yozilishi bir xil, talaffuzi har xil bo'lgan so'zlardir. Masalan, tok (uzum) – tok (elektor toki), tom (uyning tepa qismi) – tom (jild), ton (bo'yniga olmaslik) – ton (ohang).

Omonimlarni ko'p ma'noli so'zlardan farqlash kerak. Chunki ularning har ikkisi shaklan bir hil bo'ladi va birdan ortiq ma'no ifodalaydi. Farq shundaki, omonimlar shaklan bir hil bo'lgan alohida so'zlar bo'lsa, ko'p ma'noli so'zlar aynan bir so'zning turli ma'nolaridir.

Omonimlar badiiy adabiyotda tajnis san'atini yaratishda, askiya va payrovlarda qo'llaniladi.

Omonim – shakldosh so'zlar

Talaffuzi va yozilishi bir xil ammo ma'nosi har hil bo'lgan so'zlar

Yo rab ul shahdu shakar yo labdurur,

Yo magar shahdu shakar yolabdurur,

Jonima payvasta novak otqali,

G'amza o'qin qoshig'a yolabdurur. (A. Navoiy)

1. Yoki labdir-(birinchi misrada)

2. Yalabdimikan-(ikkinchi misrada)

3. Yoylabdi (o'qni)-(to'rtinchi misrada)

Tiyg'i ishqiy yarosidur butmagan,

Dardini har kimga aytib butmagan,
Hajr sahrosida ohim o'tidin,
Onda gul yohud giyohe butmagan. (A. Navoiy)

1. Bitmagan – tuzalmagan- ma'noda
2. Tugatmagan- ma'noda
3. O'smagan- ma'noda

La'lidin jonimg'a o'tlar yoqilur,
Qoshi qaddimni jafodin yo qilur,
Men vafosi va'dasidin shodmen,
Ul vafo bilmanki qilmas yo qilur. (A. Navoiy)

1. O't yoqiladi- ma'noda (birinchi misrada)
2. Qaddimni dol qiladi , egadi- ma'noda (ikkinchi misrada)
3. Qiladi yo qilmaydi- ma'noda (to'rtinchi misrada)

Yomonlikni tashlab yaxshilik sari o't,
Chaman kibi sahroda ham ko'karar o't,
Bilib qo'yki yoningda turgan do'sting,
Bir kun kelib yondirar misoli o't. (A Navoiy)

1. O'sha tomonga o't- ma'noda (birinchi misrada)
2. O'simlik, maysa- ma'noda (ikkinchi misrada)
3. Olov- ma'noda (to'rtinchi misrada)

Qil (soch tolasi) – qil (harakat)

Qo'y (hayvon) – qo'y (fe'l)

Yoz (fasl) – yoz (fe'l)

Is (hid) – is (o'rgimchak ini)

Rasm (odat) – rasm (surat)

Dam (nafas) – dam (hordiq) – dam (bosqon)

Tush (pastga tush) – tush (pardoz ashyosi) - tush(uxlaganda ko'riladi)

Oshiq (ot) – oshiq (sifat)

Och (sifat)- och (fe'l)

Yosh (ko'z yoshi) – yosh (umr o'lchovi)¹

Tut (daraxt) – tut (harakat)

Yuz (bashara) – yuz (son)

Oq (rang) – oq (harakat)

Soch (a'zo) – soch (harakat)

Omonimlar. Omonimlar talaffuz va yozilishiga ko'ra bir xil, ammo anglatgan ma'nosiga ko'ra turli xil bo'ladi. Omonim so'zi grekcha bo'lib, bir xil demakdir. Omonimlar, asosan, bir so'zdagi ko'p ma'nolilik, turli so'zlardagi fonetik o'zgarishlar, boshqa tillardan so'z o'zlashtirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan: sir – davlat siri, oynaning siri, kostrulning siri; ot – ism, hayvon, atama, fe'l kabi.

Omonimlar badiiy adabiyotda, og'zaki nutqda, ayniqsa, askiyada so'z o'yini, qochiriq ma'nolarni ifodalash uchun keng qo'llaniladi. SHuningdek, o'zbek adabiyotida omonim so'zlar qofiyasiga asoslangan tuyuq janri ham mavjud.

Sinonimlar. Sinonimlar yozilishi va talaffuzi jihatidan turlicha, anglatadigan ma'nolari esa o'zaro yaqin bo'lgan so'zlardir. Sinonimlar tushuncha ifodalashda bir-biriga qanchalik yaqin bo'lsalar ham, ma'no nozikligini ifodalashda bir-biridan farq qiladi. Masalan: odam, inson, kishi, kimsa, bashar, shaxs so'zlarini har doim ham biri o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi. Osmon, ko'k, havo, falak, samo, gardun so'zlari ham ma'no qirralari va qo'llanish uslubi hamda doirasi jihatidan o'zaro farqlanadi. Sinonim so'zlar majmuiga sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qatorni tuzishda ma'nosiga ko'ra betaraf bo'lgan so'z asos qilib olinadi.

SH.Rahmatullaev tomonidan tuzilgan («O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati» (Toshkent, 1984) dan tildagi mazkur birliklar to'g'risida ham nazariy, ham amaliyotda qo'l keladigan ma'lumotlar olishimiz mumkin.

Olimning ta'kidlashicha, bir til doirasida so'zlarning shakliy o'xshashligi, metonimiyaga uchrashi, ma'no tarqqiyotida o'zgarishlar, o'sishlar ro'y berishi, o'zga tillardan birliklar qabul qilinishi kabi omillar omonimlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, ushbu lug'atdan *dam* so'zi haqida quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz:

1. ot – *havo*; 2. ot - temirchilik atamasi; 3. ot-*lahza, nafas*; 4. bog'lovchi – *dam.., dam.*; 5. ot-*tig', o'tkir joy, yuz*; 6. predikativ so'z – *dim* ma'nolarida kelgan (*R a h m a t u l l a y e v S H*. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati.-Toshkent, 1984, 49-50-betlar). Lug'atdagi maqolalar statistikasi ham leksemalarning mazkur turkumi haqida ba'zi fikrlarga kelishga asos bo'ladi. «Lug'at»da berilgan 497 omoifodaning 372 tasi ikki omoleksemali, 93 tasi uch omoleksemali, 21 tasi to'rt omoleksemali, 7 tasi besh omoleksemali va 4 tasi olti omoleksemali bo'lib, 1160 dan ortiq leksemani birlashtiradi» (*R a h m a t u l l a y e v S H*. Yuqoridagi lug'at, 13-14-betlar) Tildagi omonimlarning ozligi yoki ko'pligi, bir maqolada 2 tadan tortib 6 tagacha ma'noning farqlanishi tilimiz uchun ijobiy hodisami yoki salbiymi, bu haqda shu o'rinda bir narsa deb bo'lmaydi. Ammo ayrim so'z shakllarining ma'nolarida farqlanishini ko'rsata olishda mazkur tipdagi lug'atlarning xizmatini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Qo'shimchalar omonimiyasi. Semantik tomondan o'zaro bog'liq bo'lmagan, turli ma'nolarni bildiruvchi har xil qo'shimchalarning tashqi jihatdan bir xil bo'lishi qo'shimcha **omonimiyasi** deyiladi. Masalan: yotoq, o'roq, qo'rqoq, qochoq so'zlaridagi -oq qo'shimchasi fonetik tomondan o'xshash bo'lsa ham, bular to'rtta har xil qo'shimchadir.

Qo'shimchalar omonimiyasi turli tipdagi ergash morfemalar orasida uchraydi: 1. So'z yasovchi qo'shimchalarning o'z doirasida: to'plam (-m qo'shimchasi harakat natijasi oti yasaydi), o'rim (-im qo'shimchasi proses nomi yasaydi). 2. So'z yasovchi qo'shimcha bilan shakl yasovchi qo'shimcha orasida: tinchi (-i fe'l yasovchi qo'shimchasi **u tinchidi**; uchinchi shaxsni ko'rsatuvchi egalik qo'shimchasi -i ham shu formada bo'ladi -kitobi). 3. SHakl yasovchi qo'shimchalarning o'z doirasida: oqish – sifat (-ish belgining o'zligini bildiradi), chopish – fe'l (-ish fe'lning funksional shaklini hosil qiladi.)

4. Omonim qo'shimchalar urg'u orqali farqlanadi: urg'uli -ma qo'shimchasi ot, sifat yasaydi, urg'usiz -ma qo'shimchasi fe'l yasaydi va h.k.

Qo'shimchalar omonimiyasi hodisasining o'ziga xos xususiyatlari M. Jo'raboeva tomonidan tadqiq etilgan.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklariga nazar tashlaydigan bo'lsak omonimlar uchun juda kam mashqlar ajratilgan. 2-3 sinf darsliklarida bu mavzu deyarli ko'zga ⁵tashlanmaydi, lekin 4-sinf ona tili darsligida omonim so'zlarni uchratishimiz mumkin.

Masalan: 263-mashq. Birikmalarni o'qing.

ko'm-ko'k o't	ariqdan o't
minishli ot	koptokni ot

Bir xil shakldagi so'zlarni ma'nosini ayting. Nimasi bilan farq qiladi?

Ko'rib turganimizdek omonimlar ko'rsatib qo'yilgan, lekin juda sodda omonimlar chunki boshlang'ich sinflarda omonimlarni o'rganish o'quvchida birmuncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin, natijada o'quvchi tushunmay darsga qiziqishi susayishi mumkin. SHuning uchun juda sodda, qisqa to'xtalib o'tilgan.

1.2 Sinonim so'zlar

Sinonimlar (grekcha sinonomos yoki sinonomon – bir nomli degani) – shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir – biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Sinonim so'zlar bir hil predmetlarni (ovqat, osh, taom), predmetning bir hil belgisini (ishchan, harakatchan, tirishqoq), bir hildagi harakatni (asramoq, saqlamoq) bildiradi.

Bunday so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan sinonimik qatorni tashkil etadi. Bu qatordagi ma'nosi betaraf bo'lgan, ko'p qo'llaniladigan so'z asosiy so'z (dominanta, bosh so'z) deb ataladi: chiroyli, go'zal, ko'hliq.

Ko'p ma'noli so'zlar ko'chma ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: hayoli, andishali, oriyatli, iboli (sifat); yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol (ot); gapirdi, so'zladi (fe'l).

Tildagi o'zlashma (boshqa tildan kirgan) so'zlar o'zbekcha so'zlar bilangina emas, balki o'zaro ham sinonim bo'lishi mumkin: Respublika – jumhuriyat. Tub so'zlar yasama so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkin: his (tub) – sezgi (yasama),

⁵ 4-sinf "Ona tili" darsligi 6/3/2014Toshkent 2013.

savol (tub) – so'roq (yasama). Sinonimik qatordagi so'zlar eskirishi mumkin: odat, rasm, urf, fan (rasm, odat); iltimos, o'tinch, tavollo; oqsoq, cho'loq, lang.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud:

leksik (lug'aviy) sinonimlar. Bular ham ikki xil bo'ladi: a) to'liq sinonimlar har jihatdan teng keladigan, o'zaro farq qilmaydigan, birining o'rnidan ikkinchisini bimalol qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlardir (bular yana leksik dubletlar ham deb yuritiladi, kosmos – fazo, respublika); b) ma'noviy sinonimlar ayrim ma'no nozikliklari bilan farq qiladigan, birini ikkinchisini o'rnida har doim ham qo'llab bo'lmaydigan sinonimlardir: ovqat, taom, yemish, ho'rak; kuldi, jilmaydi, tirjaydi, irjaydi, ishshaydi, irshaydi, hoholadi; 2) frazeologik sinonimlar: boshi osmonda – og'zi qulog'ida – do'ppisini osmonga otmoq (o'ta xursand). 3) grammatik sinonimlar ikki xil bo'ladi: a) morfologik sinonimlar: adabiyotchi – adabiyotshunos, keldilar – kelishdi. b) sintaktik sinonimlar erkin so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasidagi sinonimlikdir: dala ishlari – daladagi ishlar. Kitobni o'qidi – kitob o'qildi. 4) shartli sinonimlar ma'lum gap yoki matn ichidagini o'zaro sinonim bo'lgan so'zlardir: Nega kerak edi shu chiroy, shu o't? Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq? (Hamid.O) Bu misoldagi chiroy, o't, yoniq yulduz so'zlari o'zaro shartli sinonimlar hisoblanadi.

So'zlar doirasidagi ma'nodoshlik hodisasi leksik sinonimiya deyiladi. Til birliklari ichida so'zlardan tashqari ibora va qo'shimchalarda ham sinonimlik hodisasi uchraydi.

Shaklan, har xil, birlashtiruvchi ma'nosi bir hil yoki umumiy bo'lgan so'zlar sinonimlar deyiladi. Sinonimlar ma'nodosh so'zlar deb ham yuritiladi. Sinonimlar ikki so'zdan tortib o'ntagacha so'zni o'z ichiga oladi. Masalan, ish, yumush; in, uya, oshyon; nur, shul'a, yog'du, ziyo va boshqalar.

Bir ma'no atrofida birlashuvchi so'zlar yig'indisi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qatordagi bosh so'zga dominanta deyiladi. Dominanta so'z hozirg adabiy so'zga mansubligi, hissiy bo'yoq va uslubga ko'ra betarafligi, nutqda ko'p qo'llanilishi, zamonaviy qatlamga hosligi bilan harakterlanadi.

Sinonimlar shaklan har xil bo'lishi bilan omonimlarga o'xshasada, ma'noning yaqinligi va har doim bir xil so'z turkumiga mansub bo'lishi bilan ulardan farqlanadi.

O'zbek tilida sinonimiya antonim va omonim kabi boshqa hodisalarga nisbatan keng tarqalgandir. Buni sinonimlarni barcha so'z turkumlarida uchrashi ham isbotlaydi.

Masalan, baxt, tol'e, iqbol, saodat (ot), bepoyon, poyonsiz, cheksiz (sifat), hamma, barcha, bari (olmosh), gapirmoq, so'ylamoq, so'zlam (fe'l), asta, sekin, ohista (ravish), ammo, lekin, biroq (bog'lovchi), kerak, lozim, darkor (modal fe'l), balli, barakalla, ofarin, yashavor, qoyil, tasanno. Sinonim so'zlar ma'nolari o'xshash yoki bir xil bo'lsada, ayrim xususiyatlari ya'ni hissiy bo'yoq, nutq uslubiga hoslik, zamonaviylik, dealektal qo'llanilishi, ma'noni ifodalash darajasi kabi belgilari bilan bir – biridan farqlanadi. shunga ko'ra ular quydagi turlarga bo'linadi:

Ma'noviy sinonimlar – ma'noni ifodalash darajasiga ko'ra bir – biridan farqlanadi. Bunday sinonimik qatordagi bazi so'zlar belgini me'yoriy darajada ifodalasada, boshqalari kuchli yoki kuchsiz daraja bilan ifodalaydi. Masalan, achchig'lanmoq, g'azablanmoq, qaxrlanmoq; nam, ho'l, shallabo; yel, shabada, shamol, bo'ron kabi sinonimik qatorlarda belgining ortib borishi kuzatilsa, yaxshi, durust, tuzuk sinonimik qatorida me'yorga nisbatan kuchsizlanib borish ifodalangan.

Uslubiy sinonimlar – so'zning semantik takibi leksik ma'nodan tashqari ijobiy yoki salbiy bo'yoq bilan qo'langan so'zlardir. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol sinonimik qatorida yuz so'zi betaraf, bet, aft, bashara so'zlari esa salbiy, chehra, jamol so'zlari esa ijobiy bo'yoqqa ega. Lekin bu so'zlarning barchasi bir hil "boshning old qismi" ma'nosini ifodalaydi.

Nutqiy sinonimlar nutqning u yoki bu turiga hoslanganligi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlardir. Masalan, ozgina, picha, sal, hiyol, qittay, jichcha sinonimik qatorida ozgina nutqning barcha ko'rinishlarida qo'llanila olgan holda, picha, sal, hiyol, qittay, jichcha kabilar faqat so'zlashuv nutqiga hosdir. Yoki,

boshqa, o'zga, bo'lsa qatorida boshqa adabiy nutqda, o'zga badiiy nutqda bo'lak – so'zlashuv nutqiga hosdir.

Shartli (kontekstual) sinonimlar – yakka olinganda o'zaro sinonim bo'lmay, faqat ma'lum matn doirasida sinonimik munosabatga kirishuv so'zlaridir. Masalan, chinni va kosa so'zlarining leksik ma'nolari bir xil emas. CHinni “idish tovoq uchun ishlatiladigan oq loyni”, kosa esa “piyoladan kattaroq idish”ni ifodalaydi va ular sinonim bo'la olmaydi. Biroq ular matn doirasida sinonimlikni yuzaga keltirish mumkin. Masalan, Holjonbeka hitoy chinnida moy olib keldi. Hitoy kosalariga suzilgan ovqatning hovuri chiqib qolgan edi.

To'liq sinonimlar. Leksik (dubleltlar) – ma'nolari o'zaro teng bo'lib farqlovchi semalari bo'lmagan so'zlardir. Ba'zi adabiyotlarda ular absolyut sinonimlar deb ham berilgan. Masalan, so'roq, savol; nom, ot; habar, darak, agitasiya, tashviqot va boshqalar.

Tilda sinonimlar quyidagi yo'llar bilan yuzaga keladi: 1) Boshqa tildan so'z o'zlashtirish orqali: sevgi (o'zbekcha) – muhabbat (arabcha), ot (o'zbekcha) – ism (arabcha), yozuvchi (o'zbekcha) – adib (arabcha), ko'klam (o'zbekcha) – bahor (arabcha), o'qituvchi (o'zbekcha) – pedagog (ruscha), tilshunoslik (o'zbekcha) – lingvistika (ruscha). 2) mahalliy lahja va shevalardan so'z olish orqali: aka va og'a, yostiq va bolish, narvon – shoti. 3) tilda mavjud so'zlar asosida so'z yasash orqali: vazifa –topshiriq, hotira – esdalik, farq – ayirma. 4) so'zning yangi ma'no kasb etishi natijasida: masalan, o'rin so'zi ma'no taraqqiyotiga uchragani uchun ham joy so'zi bilan, ham lavozim so'zi bilan sinonimik qator hosil qiladi: o'rin – joy; o'rin – lavozim. Demak ko'p ma'noli so'zlar har bir ma'nosi bilan alohida alohida sinonim qatorni tashkil etadi. O'g'zaki va yozma nutqda sinonimlarning katta amaliy ahamiyati bor. Sinonimlar nutq boyligini oshiradi. U til lug'at tarkibining qanchalik boy va rang barangligini ko'rsatuvchi belgilardan biridir. Sinonimlar bir so'zni o'rinsiz takror ishlatilishiga yo'l qo'ymaydi, uslubning ravonligini ta'minlaydi. So'z ma'nolarini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Tushum kelishigining o'rin-payt, jo'nalish, chiqish kelishiklari bilan sinonimiyasiga ham sinchkovlik bilan qarash lozim. *Mashinani mindim* –

mashinaga mindim misolida ikkinchisi – jo'nalish kelishigining qo'llanishi, *eshakni mindim, otni mindim, mashinani mindim, qayiqni mindim* va, shu bilan birga, *eshakka mindim, otga mindim, mashinaga mindim, qayiqqa mindim* deyish mumkin bo'lgan holda, *poezdni mindim, kemani mindim, paroxodni mindim, samolyotni mindim, vertalyotni mindim* deyish odat emas. Nega shunday? Fikrimizcha, tushum kelishigi ishlatilganda minish vositasini so'zlovchining o'zi boshqargan, jo'nalish kelishigi qo'llanganda esa bu vositani boshqa bir kishi boshqargan bo'lib chiqadi. Binobarin, harakatning bajarilishida bu kabi farqlar mavjud ekan, ularni kelishiklar o'rtasida sinonimiya deb tushunish to'g'ri bo'ladimi yoki ikki xil me'yoriy holat, debmi? Biz ikkinchisining tarafdorimiz.

Tushum va chiqish kelishiklari munosabati ham tahlil talab: *Nonni yeng – nondan eng, nonni oling – nondan oling. Nonni yeng – uning hammasini yeng, nondan yeng – bir qismini yeng, nonni oling – turgan bitta nonni oling, nondan oling – turgan ko'p nondan bir qismini oling.* Demak, ularning har ikki ko'rnishini ham alohida mazmun ifoda etuvchi me'yoriy holat sifatida e'tirof etish mumkin.

-ga ning tomon, *sari* ko'makchilari bilan sinonimik munosabatga kirishishi yozma nutq uchun asosiy me'yor sanaladi: *Xorazm Jaloliddin xayolidek qiziq tush, / Ta'birga par bermasa na bir pari na bir qush, / Sodda G u r l a n s a r i bor, kelar bir bosiq tovush : /"Ko'ngilni ko'targuvchi saboni ko'rmoq bo'lsang,/ Bor Amu b o ' y l a r i g a, borgin do'stginam* (O. Matjon).

Vaqt o'tishi bilan bu kabi sinonimik munosabatlar o'rtasidagi ma'noviy farqlar tobora oydinlasha borayotganini kuzatamiz: *birlashmaga boshliq* - biron tashkilotning o'ziga boshliq, *birlashmada boshliq* - tashkilot qaramog'idagi biron-bir bo'limga boshliq, *institutda domla* - institutdagi fakultetdan birida o'qituvchilik qiladi, *institutga domla* - ham grammatik, ham uslubiy jihatdan me'yorning buzilishi, shevachilik. Yana qiyoslaymiz: *institutda rektor, institutga rektor.* Vazifa ifodalash nuqtai nazaridan *rektor* va *domla* so'zlari bir-biridan farq qilganligi tufayli, *-ga* va *-da* o'rtasidagi sinonimiya ham o'ziga xos tarzda kechmoqda. Uslubiy g'alizlik ikkinchi holatda sezilmaydi. Institutni, aytaylik,

universitetdan ajratib ko'rsatishga xizmat qilaya'ti, xolos. SHu o'rinda u qiymat jihatdan –*ning* ga teng kelishi mumkin: *institutga rektor, institutning rektori*.

«O'zbek tili stilistikasi» kitobida –*da ning* - *dan* va *orqali* ko'makchisi bilan sinonimik munosabatga kirishishi aytib o'tiladi va quyidagi misollar keltiriladi: *r a d i o -d a e'lon qildi – r a d i o o r q a l i e'lon qildi- r a d i o - d a n e'lon qildi*. Tushunishimizcha , ikkinchi va uchinchi holatda sinonimiya bor. Birinchisi esa og'zaki nutqdagi e'tiborsizlik natijasi. Ammo *qo'lda tarqatdi, qo'ldan tarqatdi, qo'l bilan tarqatdi* deyilganda sinonimiya kuzatiladi.

prof. Yo.Tojievning «O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiyasi» asari ham ot so'z turkumi doirasidagi me'yoriy holatlarni belgilashda ishonchli manba sanaladi. Masalan, birgina –*chi* affiksining –*furush, -soz, -kash, -kor, -boz, -'az, -shunos, -go'y, -xo'r, -dor, -navis, -'arvar, -do'z, -bon, -xon, -'arast* kabi qo'shimcha va affiksoïdlar bilan sinonimik munosabatga kirishishi mumkinligi, ular qaysi so'zlar qo'shilganda me'yoriy hisoblanishi yoki hisoblanmasligi semantik-uslubiy jihatdan boy faktik materiallar asosida ko'rsatib berilgan : *tuyachi – tuyakash – tuyabon, kirachi – kirakash, kemachi – kemakash, mehnatchi – mehnatkash, tilchi – tilshunos, qonunchi – qonunshunos, do'ppichi – do'ppifurush – do'ppido'z, holvachi – holvafurush, muqovachi – muqovasoï, tunukachi – tunukasoz, somsachi – somsapaz, mantichi – mantipaz, maslahatchi – maslahatgo'y, qasidachi – qasidago'y, etikchi – etikdo'z* kabilar (T o j i y e v Yo. O'zbek tilida shaxs otlari yasovchi affikslar sinonimiyasi. – Toshkent, 1987, 12-62-betlar). Misollar tahlilidan kelib chiqib, sifat so'z turkumi doirasidagi grammatik birliklar anchagina me'yorlashganligini ayta olamiz. Ularda faqat qo'llanishdagi uslubiy farqlarni ajrata bilish lozim. Masalan, sifat yasovchi qo'shimchalarning asosiy qismi umumiste'moldagi birliklar bo'lib, barcha uslublarda ishlatilsa-da, –*dor, -kor, -mand, -omuz, -'arast, -'arvar, ba-, ser-, no-*lar adabiy tilda so'zlashuvchilar nutqida, –*iy, -viy, -gan, -simon, -on, -ik, -iv, -al, -shunos* affikslarining ilmiy, ommabop va rasmiy uslublarda bir muncha faolligi seziladi. Badiiy uslubda esa –*lik* qo'shimchasining –*liq, -lig', -luq, -lug'* kabi variantlari ajralib turadi (K a r i m o v S. O'zbek tilining badiiy uslubi. –

Samarqand, 1992, 53-54-betlar). Binobarin, vazifaviy uslublar nuqtai nazaridan ular ana shu tarzda me'yorlashgan.

Ammo, bu o'rinda gap butunlay boshqa masalada - ularning o'zaro sinonimlashuvi borasida ketayapti. «O'zbek tili grammatikasi»da «O'zlik daraja formasi asosan - (i)n, ba'zan - (i)l affiksi yordamida obektli fe'llardan yasaladi: *tashlanmoq*, *maqтанmoq*, *qo'shilmoq* va boshqalar. Bir-ikkita fe'ldagina o'zlik daraja formasining - (i)sh affiksi yordamida yasalishi uchraydi: *joyla* - *joylash*, *ker* - *kerish* kabi» deyilgan (O'zbek tili grammatikasi, 1 tom, 445-446-bet). Ammo til materiallari bunday holatlarning ham anchagina ekanligini ko'rsatadi: *asabiylanmoq* - *asabiylashmoq*, *butunlanmoq* - *butunlashmoq*, *vahshiylanmoq* - *vahshiylashmoq*, *dadillanmoq* - *dadillashmoq*, *yengillanmoq* - *yengillashmoq*, *yovuzlanmoq* - *yovuzlashmoq*, *jarangsizlanmoq* - *jarangsizlashmoq*, *joylanmoq* - *joylashmoq*, *jipslanmoq* - *jipslashmoq*, *juftlanmoq* - *juftlashmoq*, *zichlanmoq* - *zichlashmoq*, *loylanmoq* - *loylashmoq*, *loyqalanmoq* - *loyqalashmoq*, *moyillanmoq* - *moyillashmoq*, *moslanmoq* - *moslashmoq*, *muvofiglanmoq* - *muvofiglashmoq*, *oydinlanmoq* - *oydinlashmoq*, *ravshanlanmoq* - *ravshanlashmoq*, *ruhsizlanmoq* - *ruhsizlashmoq*, *razillanmoq* - *razillashmoq*, *sog'lomlanmoq* - *sog'lomlashmoq*, *suyuqlanmoq* - *suyuqlashmoq*, *soddalanmoq* - *soddalashmoq*, *siyqalanmoq* - *siyqalashmoq*, *sekinlanmoq* - *sekinlashmoq*, *taranglanmoq* - *taranglashmoq*, *tetiklanmoq* - *tetiklashmoq*, *takomillanmoq* - *takomillashmoq*, *tezlanmoq* - *tezlashmoq*, *tartiblanmoq* - *tartiblashmoq*, *tartibsizlanmoq* - *tartibsizlashmoq*, *ulanmoq* - *ulashmoq*, *uzoqlanmoq* - *uzoqlashmoq*, *uvoqlanmoq* - *uvoqlashmoq*, *xastalanmoq* - *xastalashmoq*, *xoslanmoq* - *xoslashmoq*, *xarobalanmoq* - *xarobalashmoq* kabi.

So'zlarning ana shu shakllari imlo lug'atlarda o'z ifodasini topgan va ularda o'zlik nisbatda qo'llanilayotgan *-lan/-lash* qo'shimchalarini sinonimlar sifatida qarash, binobarin, bunday qo'llanishlarni me'yoriy holat sifatida anglash mumkin.

Ammo ularning qo'llanilishida *aylanmoq* - *aylashmoq*, *achchiqlanmoq* - *achchiqlashmoq*, *ishqalanmoq* - *ishqalashmoq*, *sudlanmoq* - *sudlashmoq* singari holatlar borki, ularda yuqoridagi qo'shimchalarni o'zaro sinonim sifatida qarash

mumkin bo'lmaydi. Chunki so'zlarning ma'nosidagi va fe'llar nisbatidagi ikki xillik bunga imkon bermaydi. *Gavdalanmoq, foydalanmoq, shodlanmoq, rivojlanmoq* hamda *qudalashmoq, sizlashmoq, rozilashmoq, ko'maklashmoq* so'zlarida esa mazkur qo'shimchalarning o'rnini almashtirish ham mumkin emas. Agar shunday qilinsa, me'yor butunlay buziladi.

Ammo, bu o'rinda gap butunlay boshqa masalada - ularning o'zaro sinonimlashuvi borasida ketayapti. «O'zbek tili grammatikasi»da «O'zlik daraja formasi asosan - (i)n, ba'zan - (i)l affiksi yordamida obektli fe'llardan yasaladi: *tashlanmoq, maqtanmoq, qo'shilmoq* va boshqalar. Bir-ikkita fe'ldagina o'zlik daraja formasining - (i)sh affiksi yordamida yasalishi uchraydi: *joyla - joylash, ker - kerish* kabi» deyilgan (O'zbek tili grammatikasi, 1 tom, 445-446-bet). Ammo til materiallari bunday holatlarning ham anchagina ekanligini ko'rsatadi: *asabiylanmoq - asabiylashmoq, butunlanmoq - butunlashmoq, vahshiylanmoq - vahshiylashmoq, dadillanmoq - dadillashmoq, yengillanmoq - yengillashmoq, yovuzlanmoq - yovuzlashmoq, jarangsizlanmoq - jarangsizlashmoq, joylanmoq - joylashmoq, jipslanmoq-jipslashmoq, juftlanmoq - juftlashmoq, zichlanmoq - zichlashmoq, loylanmoq - loylashmoq, loyqalanmoq - loyqalashmoq, moyillanmoq - moyillashmoq, moslanmoq - moslashmoq, muvofiqlanmoq - muvofiqlashmoq, oydinlanmoq - oydinlashmoq, ravshanlanmoq - ravshanlashmoq, ruhsizlanmoq - ruhsizlashmoq, razillanmoq - razillashmoq, sog'lomlanmoq - sog'lomlashmoq, suyuqlanmoq - suyuqlashmoq, soddalanmoq - soddalashmoq, siyqalanmoq - siyqalashmoq, sekinlanmoq - sekinlashmoq, taranglanmoq - taranglashmoq, tetiklanmoq - tetiklashmoq, takomillanmoq - takomillashmoq, tezlanmoq - tezlashmoq, tartiblanmoq - tartiblashmoq, tartibsizlanmoq - tartibsizlashmoq, ulanmoq - ulashmoq, uzoqlanmoq - uzoqlashmoq, uvoqlanmoq - uvoqlashmoq, xastalanmoq - xastalashmoq, xoslanmoq - xoslashmoq, xarobalanmoq - xarobalashmoq* kabi so'zlarning ana shu shakllari imlo lug'atlarda o'z ifodasini to'gan va ularda o'zlik nisbatda qo'llanilayotgan *-lan/-lash* qo'shimchalarini sinonimlar sifatida qarash, binobarin, bunday qo'llanishlarni me'yoriy holat sifatida anglash mumkin.

Ammo ularning qo'llanilishida *aylanmoq – aylashmoq, achchiqlanmoq – achchiqlashmoq, ishqalanmoq – ishqalashmoq, sudlanmoq – sudlashmoq* singari holatlar borki, ularda yuqoridagi qo'shimchalarni o'zaro sinonim sifatida qarash mumkin bo'lmaydi. Chunki so'zlarning ma'nosidagi va fe'llar nisbatidagi ikki xillik bunga imkon bermaydi. *Gavdalanmoq, foydalanmoq, shodlanmoq, rivojlanmoq* hamda *qudalahmoq, sizlashmoq, rozilashmoq, ko'maklashmoq* so'zlarida esa mazkur qo'shimchalarning o'rnini almashtirish ham mumkin emas. Agar shunday qilinsa, me'yor butunlay buziladi.

So'z birikmalarining shakllanishiga xizmat qiluvchi grammatik vositalar orasida kelishik qo'shimchalarining o'rnini alohida ekanligi ma'lum. Ular haqida «Morfologiya» mavzusida alohida to'xtalganimiz. Bu o'rinda faqat ularning ko'makchilar bilan sinonimik munosabatidagi me'yoriy holatlarga to'xtalamiz.

O'zbek tilida kelishiklar va yordamchi so'zlar tadqiqiga oid kuzatishlarga tayanib aytish mumkinki, to'rtta kelishik qo'shimchasi ko'makchilar bilan sinonimik munosabatga kirishadi:

- *ga / sari (dushmanga yuzlandi / dushman sari yuzlandi, ko'chaga otlandi / ko'cha sari otlandi)*, - *ga /uzra (olamga chiqqanda quyosh / olam uzra chiqqanda quyosh)*, - *ga /tomon (qizga qaradi / qiz tomon qaradi, unga burildi / u tomon burildi, o'ziga tortdi / o'zi tomon tortdi)*, - *ga /bilan (qahqahaga to'ldi, qahqaha bilan to'ldi)*, - *ga /uchun (ukamga oldim / ukam uchun oldim)* kabi. Mana shu tarzda – **ni** qo'shimchasi *bilan, haqda*, - **da** qo'shimchasi *bo'ylab, ichra, bilan*, - **dan** qo'shimchasi *sababli, orqali, tufayli, osha, bo'ylab, uzra, ichra, bo'yicha, to'g'risida, bilan, uchun* ko'makchilari bilan sinonimik munosabatga kirishadi.

R.Qo'ng'urovning quyidagi gaplariga e'tibor beraylik: «Hozirgi o'zbek tilida *maktab tomon kuzatib bordi*, deyish mumkin bo'lgan holda, funksiyasi bir xil bo'lishidan qat'iy nazar, *qarab, qadar* kabi ko'makchilarning belgisiz tushum bilan *maktab qarab, maktab qadar* tarzida qo'llab bo'lmaydi. Bu ko'makchilar kelganda tobe so'z, albatta belgili qo'llanilishi kerak. Aks holda fikr noaniqligi kelib chiqadi, aytilmoqchi bo'lgan fikr eshituvchiga yetib bormaydi. *Maktab* so'zini jo'nalish kelishigi qo'shimchasisiz yuqoridagi ko'makchilar bilan

birgalikda qo'llab ko'raylik: Karim Salimani *maktab qadar* kuzatib bordi; Karim Salimani *maktab qarab* kuzatib bordi; Karim Salimani *maktab tomon* kuzatib bordi. Bu gaplarning faqat uchinchi adabiy til normasiga to'liq mos keladi. Qolgan ikkitasi esa hozirgi o'zbek tili normasiga unchalik mos kelmaydi» (*Q o' n g' u r o v R. O'zbek tili stilistikasidan ocherklar. – Samarqand, 1975, 97-bet*). Olimning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda faqat bir narsani qo'shimcha qilish mumkinki, *maktab tomon* birikmasining me'yorlashuvi uning ko'pchilik tomonidan qo'llanish chastotasi bilan bog'liq. *Qadar, sari* ko'makchilari o'z sinonimlari *qarab* va *tomon* ga nisbatan nutqda, ayniqsa so'zlashuv nutqida kam qo'llaniladi. So'zlashuv nutqi esa til birliklarining me'yorlashuvi uchun eng qulay imkoniyat sanaladi. SHu ma'noda hatto *qarab* ko'makchisining *qadar* va *sari* ga qaraganda *-ga* o'rnida qo'llanishning ommalashib, me'yorlashib borayotganini kuzatish qiyin emas.

Bu o'rinda xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, nutqiy jarayonda so'zlarning o'zaro birikuvini tashkil qiluvchi so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar va ularning ayrim ko'makchilar bilan sinonimiyasi o'zbek tilining fikrni eng nozik jihatlari bilan ifoda etishdagi imkoniyatlari naqadar kengligidan dalolat beradi. Binobarin, ular uslubshunoslik uchun qimmatli material bera oladi. Masalan, ularning o'zaro almashinib qo'llanishiga me'yor nuqtai nazardan qaraganimizda esa grammatik me'yor nomuvofiqligi uslubiy me'yor buzilishlariga qaraganda nisbatan kam diqqatni tortad

Qo'shimchalar sinonimiyasi. Shaklan har xil, umumiy ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lgan qo'shimchalar sinonim qo'shimcha deyiladi: *-yap, -yotir, -moqda* qo'shimchalari hozirgi zamon davom fe'lini yasaydi. *-li* va *-dor* qo'shimchalari egalikni ifodalaydi: *homilali, homilador. -giz, -dir* qo'shimchalari fe'lning orttirma nisbatini yasaydi: *oldir – olg'iz, kiydir – kiygiz* kabi.

Sinonim absolyut tenglikka ega emas. Ular ma'nosi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanish doirasi bilan o'zaro farqlanib turadi. Bu farqlarga e'tibor qilish orqali mazmunni ochiq, nozik ottenkalarni hamda emotsiyalarni aniq berishga, umuman, uslubiy jihatdan savodli bo'lishga erishiladi.

Sinonim qo`shimchalar boshqa tillardan, shevalardan qo`shimchalar olish yo`li bilan hosil bo`ladi.

Sinonim qo`shimchalar so`z yasovchilarda ham (unumli, unumdor), shakl yasovchilarda ham (oqish, oqimtir, aytingiz, aytinglar) uchraydi.

Sinonim qo`shimchalarning o`ziga xos xususiyatlari Y.Tojiev tomonidan maxsus tadqiq etilgan.

“Muhokamat ul lug`atayn” – turk va fors tillari qiyoslab yozilgan ikki til muhokamasiga bag`ishlangan asar. Bu bilan turkiy tilni ham boy til ekanligi va bu tilda badiiy asarlar yozish mumkinligi isbotlandi. Birgina kulmoq, yig`lamoq, sevmok so`zlarining 100 dan ortiq sinonimlari keltirildi...Navoiyning hizmati shundaki : o`zbek adabiy tilini yangi tub so`zlar bilan boyitdi. So`zlar va qo`shimchalar asosida yangi so`zlar yaratdi. O`zigacha bo`lgan so`zlarni yangi ma`nolar bilan boyitdi...

So`zlarning leksik me`yorini belgilashda va ulardagi ma`no nozikliklarini farqlashda hamda umumiy jihatlarini payqashda sinonim, omonim va antonim lug`atlarning xizmati katta bo`ladi. O`zbek leksikografiyasida yuqorida sanab o`tilgan bu kabi lug`atlarning izohli ko`rinishlari mavjudligi quvonarli voqeadir. A.Hojiev «O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati» (Toshkent, 1974) ining 223-betidan misol keltiramiz: *Chiroyli, go`zal, husndor, husnli, xushro`y, ko`hlik, ko`rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol*. Ular garchi ma`nolarining yaqinligi bilan bir sinonimik qatorda joylashsa-da, me`yoriy o`lchovlariga ko`ra teng emas. Lug`at xuddi ana shu jihatlar hisobga olinganligi bilan qimmatlidir. Fikrimizning isboti uchun sinonimik qatordagi so`zlarga berilgan izohlarni to`liq keltiramiz: «Husni odatdagidan ortiq, xunuknig aksi. *Chiroyli* stilistik jihatdan neytral. Bu so`z odamga, boshqa jonli narsalarga nisbatan ham qo`llanilaveradi. *Go`zal* odamga va jonsiz narsalarga nisbatan qo`llanadi. Bu so`zda belgi darajasi kuchli. *Husndor, husnli* so`zlari nisbatan kam qo`llanadi. *Xushro`y, ko`hlik* faqat odamga nisbatan qo`llanadi va «yoqimlilik» ottenkasi bor. *Barno, suluv, zebo* so`zlari ham odamga nisbatan qo`llanadi. *Suluv* – kam qo`llanadi. *Zebo* kitobiy. *Ko`rkam* asosan jonsiz narsalarga, kam darajada odamga nisbatan qo`llanadi».

Boshlang'ich sinflarda sinonim (ma'nodosh so'zlar)ni o'qitish juda muhim. Chunki o'quvchilar so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi.

2-sinf ona tili darsligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu mavzuga oid mashqlar juda kam uchraydi.

Masalan: 231-mashq.

Kamtar bo'lsang, obro' ortar,

Manman bo'lsang, ensa qotar.

Ko'kka boqma, ko'pga boq.

Mashq shartida : ularni ko'chiring, mazmunini izohlang, *ortar*, *boq* so'zlariga yaqin ma'noli so'zlar tanlang.

Ortar so'ziga yaqin ma'noli so'zlar – *ko'payar*, *oshar* so'zlari bo'lsa

Boq so'ziga yaqin ma'noli so'z – *qara*, *e'tibor* ber so'zlarini yozishimiz mumkin.

3-sinf ona tili darsligida bu mavzuga ko'p e'tibor qaratilgan.

Masalan: 3-sinf darsligidagi 291-mashqqa e'tibor qaratadigan bo'lsak sinonim⁶⁷ so'zlarni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

291-mashq. O'qing. Berilgan fe'llarga yaqin ma'noli fe'llar tanlang va ularni birgalikda yozing.

Sevinmoq, sog'aymoq, tugatmoq, asramoq, yugurmoq, yig'moq.

Namuna: sevinmoq – quvonmoq

Foydalanish uchun so'zlar: *tuzalmoq*, *quvonmoq*, *bitirmoq*, *cho'moq*, *saqlamoq*, *to''lamoq*.

Mashq quyidagicha bajariladi: sog'aymoq – tuzalmoq, tugatmoq – bitirmoq, asramoq – saqlamoq, yugurmoq – chopmoq, yig'moq – to''lamoq.

Bundan ko'rinib turibdiki sinonimlik fe'l so'z turkumi doirasida kuzatilyapti.

⁶ 3-sinf Ona tili darsligi Toshkent 2012

⁷ 4-sif Ona tili darsligi Toshkent 2013

4-snif darsligida sinonim so'zlarni to'ish 2-3 snifdagiga nisbatan birmuncha murakkabroq berilgan. Endi faqat ma'nodosh so'zlarni to'ish emas balki ma'nolar rasidagi farqni ham aniqlash vazifasi qo'yilgan. 280- mashqda sifatlar o'rtasidagi sinonimlik munosabatini ko'rib o'tamiz.

280- mashq. Berilgan sifat va otlardan foydalanib, birikma tuzing.

Buyuk, ulug', katta, yirik;

Olim, yozuvchi, bino, inson, davlat

Chiroyli, go'zal, barno, suluv, dilbar;

Manodosh sifatlarining har biri bitta oy bilan bog'lana oladimi?

Bu mashq shartida ko'rinib turibdiki sifatlarining ma'nolari orasidagi farqni o'quvchilarga tushuntirish kerakligi, bu to'g'risida o'quvchilarga tushuncha berish kerakligi aytilyapti.

1.3 Antonim so'zlar

O'zaro qarama – qarshi, zid ma'no bildiradigan so'zlar biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi. So'zlarning bunday munosabatda bo'lish hodisasi anyonimiya deb yuritiladi. Katta – kichik, ko'p – oz, uzoq – yoqin, yuqori – past, qattiq – yumshoq, yoz – qish, to'r – poyga, tun – kun, yo'qotmoq – topmoq, yonmoq – o'chmoq, bog'lamoq – yechmoq so'zlari antonimlar jumlasiga kiradi.

Antonimik munosabatda bo'lgan ikki so'z antonimik juft deb ataladi. Antonimik juftlikni hosil qilgan so'zlar, odatda, bir so'z turkumiga mansub bo'ladi: og'ir (sifat) – yengil (sifat), shimol (ot) – janub (ot), tez (ravish) – sekin (ravish), kelmoq (fe'l) – ketmoq (fe'l) kabi.

Antonimlar o'ziga hos xususiyati bilan omonim va sinonimlardan farqlanadi. Shakily (fonetik tuzilish) jihatidan har xillik; ma'nodagi o'zaro ziddlik antonimlarning muhim belgisi hisoblanadi. Keyingi belgi, ya'ni ziddlik tushunchasi antonimlarni belgilashda asosiy kriteriya bo'lib hisoblanadi.

Tilda mavjud bo'lgan so'zlaning barchasi o'z antonimiga ega bo'lavermaydi. Chunki ko'p narsa, hodisalar o'zining ziddiga ega emas. Qarama qarshilik ma'nosi

ko'proq narsa – hodisalarning belgisida kuzatiladi. Qalin-yupqa, erta – kech, yaxshi – yomon, qattiq – yumshoq, oq – qora, shirin – achchiq, uzoq – yaqin kabilar belgi ma'nosini ifodalovchi antonimlar hisoblanadi.

Ikki so'zning antonimligini belgilashda ularning semema structurasini aniqlash juda muhimdir. Masalan, qalin va yu'qa so'zlarining ma'no (semema) structurasini quyidagicha: yupqa – yon ko'lam me'yoridan kam; qalin – yon ko'lam me'yoridan ortiq. Bu so'zlar ma'nolari structurasida yon, ko'lam semalari bir xil bo'lib, umumiy semani; kam, ortiq semalari esa faqlovchi sema bo'lib, o'zaro ziddlik ma'nosini bildirmoqda.

Keng – tor, erta – kech, oriql – semiz, katta – kichik antonimlarining ma'no structurasini tubandagicha: keng – en o'lchami nisbatan katta; tor – en o'lchami nisbatan kam; erta – belgilangan vaqtdan biroz oldin; kech – belgilangan vaqtdan biroz keyin; oriql – tanasidagi go'sht – yog'i nisbatan ko'p, et bitgan; katta – hajm yoki shakl o'lchami meyoridan kam. Bu so'zlar semamalari tarkibida zidd semalar mavjud bo'lib, ular shu so'zlarning antonim ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Antonimlar asosan sifat, ravish, ot va fe'l turkumiga hos so'zlardan hosil bo'ladi. Shunga ko'ra, ular sifat antonimlar, ravish antonimlar, ot antonimlar, fe'l antonimlarga bo'linadi.

1. Sifat antonimlar. Sifat turkumida antonimlar ko'p. Sifat antonimlar ma'no jihatdan bir necha turga bo'linadi: 1) kishilarning harakter – hususiyatini ifodalovchi sifat antonimlar: sahiy – hasis, botir – qo'rqq, muloyim – qo'pol, dono – nodon kabilar; 2) kishilarning psixologik holatini, iqtisodiy ahvolini ifodalovchi sifat antonimlar: huasand – hafa, dilhush – dilhun; badavlat – qashshoq, boy – kambag'al; 3) kishilarning o'zaro munosabatini, fiziologik holatini ifodalovchi sifat antonimlar: ahil – noahil, kuchli – kuchsiz, sog'lom – kasalmand; 4) kishilarda tabiiy ravishda oz beradigan belgilarni bildiruvchi sifat antonimlar: yosh – qari, navqiron – mo'ysafid, novcha – pakana, semiz – oriql; 5) narsalarning hajmini, shaklini, ko'lamini ifodalovchi sifat antonimlar: katta – kichik, to'g'ri – egri, baland – past, keng – tor, chuqur – sayoz, uzun – qisqa; 6)

maza – ta'm bildiruvchi sifat antonimlar: achchiq – shirin, mazali – bemaza, hushho'r – badho'r kabilar.

2. Ravish antonimlar. Ravish turkumiga hos antonimlar: holat, tarz (tez – sekin, zo'rg'a – bermalol, birga – alohida, maburan ihtiyo'riy); 2) payt (avval – keyin, erta – kech, bugun – erta); 3) miqdor (ko'p – oz, ortiq – kam); 4) maqsad (atayin – bilmasdan, jo'rttaga – beihtiyor); 5) o'rin (nari – beri) ma'nolarini ifodalaydi.

3. Ot antonimlar. Bunday antonimlar ma'no jihatidan kishilarning psixologik holatini (quvonch – alam, rohat – azob, shodlik – qayg'u), tomonlarga oid tushunchalarni (sharq – g'arb, shimol – janub, kunbotar – kunchiqar, yer – osmon, to'r – poyga, old – orqa), yil fasllari va sutkaning qarama – qarshi tomonlarini (yoz – qish, bahor – kuz, kecha – kunduz, kun – tun, tong – shom), kundalik hayotga, urf – odatga oid tushunchalar (muhabbat – nafrat, vasl – hijron, hayot – o'lim, to'y – aza) ifodalab keladi.

4. Fe'l antonimiyada fe'l antonimlar ham kattagina o'rin egallaydi. Fe'l antonimlar asosan quyidagi ma'nolarni bildiradi: 1) qarama – qarshi tomonga bo'lgan yo'nalishni ifoda qiladi: kelmoq – ketmoq, bormoq – qaytmoq, kirmoq – chiqmoq, ochmoq – yo'moq; 2) kishilarning o'zaro aloqasini bildiradi: olmoq – bermoq, olmoq – sotmoq; 3) kishilarning ruhiy holatini ifodalaydi: kulmoq – yig'lamoq, qayg'urmoq – sevinmoq, rohatlanmoq – azoblanmoq; 4) kishilarning fizilogik holatini bildiradi: semirmoq – ozmoq, yosharmoq – qarimoq; 5) kishilarning o'zaro munosabatini ifodalaydi: urishmoq – yarashmoq, ajrashmoq – yarashmoq, eslammoq – unutmoq, salomlashmoq – xayrlashmoq; 6) narsa hajmi va holatini o'zgarishini bildiradi: kengaymoq – toraymoq, og'irlashmoq – yengillashmoq, isimoq – sonumoq tezlashmoq – sekinlashmoq kabilar.

Tilimizda sifat va ravish antonimlar ko'p uchraydi. Bu antonimlarning ko'pchiligi belgi bildiruvchi so'zlardan ekanligini ko'rsatadi. Binobarin tilimizdagi 1700 dan ortiq antonim juftlikning 1000 dan ortig' sifat va ravishdan iboratdir. Antonimiyada polisemiya hodisasini o'rganish ham juda muhimdir. Darhaqiqat, birdan ortiq so'zning o'zaro antonimik munosabati ziddikka asoslan ekan, ko'p ma'noli so'z har bir ma'nosi bilan ayrim – ayrim so'zlarga antonim bo'lishi

mumkin. Masalan, butun soʻzi bir maʼnosida yirtiq soʻziga, boshqa maʼnosida siniq soʻziga antonim boʻla oladi. Kambagʻal xalq oʻlib – tirilib mehnat qiladiku, qorni toʻymaydi, egni butun boʻlmaydi. (Oybek). Hammaning koʻzi Rahimovning tirsagi chiqib turgan yirtiq yengiga tushdi. (H.Nazir). Murabbiya haligi qoʻli singan qoʻgʻirchoqni olib, oʻrniga butun qoʻgʻirchoqni yotqizib qoʻyayotgan ekan (Oydin). Mehmonhona eshigi oldidagi suʼada siniq choynak – piyola, keng ayvonda esa oʻq tekkan ikki otkavshanib yotardi. (SH. Toshmatov).

Antonimlar quyidagicha yuzaga keladi:

1. Tilning lugʻat tarkibida qarama – qarshi maʼnoli soʻz azaldan mavjud boʻladi: katta va kichik, keng va tor, kun va tun, kecha va kunduz, yaxshi va yomon, bor va yoʻq kabilar.

2. Soʻz yasalishi natijasida antonimlar hosil qilinadi. Bunda ikki holat kuzatiladi: 1) Maʼlum bir tub soʻzga –li va –siz, ba- va be-, bar- va dor-, no- affikslarini qoʻshish orqali yasaladi: kuchli – kuchsiz, jonli – jonsiz, bemani – bamani, baquvvat – bequvvat, batartib – betartib, barqaror – beqaror, vafodor – bevafo, mazali – bemaza, haq – nohaq kabilar; 2) oʻzaro antonim boʻlgan soʻzlarga soʻz yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshib soʻz yasash orqali yangi antonimik juftlar hosil qilinadi: rostgoʻy – yolgʻonchi, doʻstona – dushmanlarcha, ogʻirlashmoq – yengillashmoq, kengaymoq – toraymoq, tezlashmoq – sekinlashmoq, xursandchilik – xafachilik, eskilik – yangilik, ostki – ustki, oqlamoq – qoralamoq kabilar.

3. Boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish natijasida antonimlar yuzaga keladi: doʻst(tojikcha) – dushman (tojikcha), quvonch (oʻzbekcha) – gʻam (arabcha), band (tojikcha) – boʻsh (oʻzbekcha), mudofaa (arabcha) – hujum (arabcha), imʼort (ruscha) – eksport(ruscha), badxoʻr (tojikcha) – hushxoʻr (tojikcha), assimilyatsiya (ruscha) – dissimilyatsiya (ruscha), analiz (ruscha), analiz (ruscha) – sintez (ruscha), maksimum (ruscha) – minimum (ruscha), manfiy (arabcha) – musbat (arabcha) va boshqalar.

Antonimlarning tilda ahamiyati katta. Antonimlar badiiy nutqda keng foydalaniladi. Mumtoz adabiyotimizda antonim soʻzlarni qoʻllash asosida tazod sheriylar sanʼati yaratilgan va undan juda keng foydalanilgan. Masalan, Lutfiyning:

Rahm qilg'il bandag'a, ey shoh, ul tengri uchun,
Kim etar bizni gado, ul sizni sulton aylagan
baytida banda - shoh, gado – sulton so'zlari o'zaro zid ma'nolarni ifodalab, tazod
san'ati saosida qo'llangan.

Qo'shimchalar antonimiyasi. Qarama-qarshi ma'no bildiruvchi qo'shimchalar
antonim qo'shimcha deyiladi. Qo'shimchalar antonimiyasi, asosan, so'z yasovchi
qo'shimchalar doirasida uchraydi: -li, -siz: aqlli, aqlsiz; -li, be-: suvli, besuv; be-,
ba-: bedavlat, badavlat.

Qo'shimchalar antonimiyasining o'ziga xos xususiyatlari B.Isabekov tomonidan
ilmiy tekshirilgan.

Maqollarda antonimlarning qo'llanilishi:

Yaxshilik qila olmasang yomonlik ham qilma
Yaxshi narsaning ko'pidan yomon narsaning ozi yaxshi
Yaxshiga yondosh yomondan qoch
Yaxshiga kun yo'q yomonga o'lim
Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog' qoladi
Yaxshi otga bir qamchi yomon otga ming qamchi
Yaxshi so'z qand yedirar yomon so'z pand yedirar
Yomon gap bilan qilich qinidan chiqar, yaxshi gap bilan ilon inidan
Nodon bo'lganidan senga do'st-o'rtoq, donodan dushmaning bo'lgani yaxshiroq
Ko'p bil dushman agar bitta bo'lsa ham, do'sting mingta bo'lsa juda kamdir kam
Ko'proq eshitib kamroq so'zlash uchuun 2 ta quloq , 1 tagina og'iz ato etilgan
Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda
Uzoqdagi qarindoshdan , yaqindagi yot yaxshi
Azob ko'rmay rohat yo'q
Ilmsiz bir yashar, ilmli ming yashar
Oyning o'n beshi qorong'u, o'n beshi yorug'
Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor
Tildan ham bol tomadi ham zahar
Yoshligingda qarilarga qilmading hizmat, qariganda yoshlarga bermagil zahmat

Kichik go'dak ham katta tushlar ko'radi
 Ovsinlar do'st bo'lsa, og'a - ini yov bo'lmas
 Qul bo'lish oson, odam bo'lish qiyin
 Bemehr qarindoshdan, mehribon yot yaxshi
 Befoyda so'zni ko'p aytma va foydalig' so'zni ko'p eshiturdin qaytma
 Gap ko'p-ku shu umr oz-da
 Duo olgan omondir , qarg'ish olgan yomondir
 Kech-kunduz tinmay mehnat qilganingda ham onang haqini o'tay olmaysan.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida antonimlardan keng foydalanilgan va antonimlarni o'rgatish uchun juda ko'p mashqlar ajratilgan. Ona tili darsliklaridan ba'zi mashqlarni ko'rib o'tamiz.

2-sinf ona tili darsligida 157-mashqqa e'tibor bersak, bu mashqda turli xil hayvonlar tasviri berilgan va bu hayvonlarni bir biriga solishtirib, qaysi hayvon katta yoki qaysi hayvon kichik ekanligini topish sharti berilgan. Bu mashqda o'zaro zidlik munosabati juda sodda usulda ko'rsatilgan va o'quvchilarning yoshiga mos, tushunishlari uchun juda qulay.

Huddi shunday 248- mashqqa e'tiboringizni qaratmoqchiman.
 248-mashq. Ikki narsani qarama-qarshi belgisiga ko'ra qiyoslang. Mazmunga mos so'zlarni qo'yib gaplarni yozing.

Rangiga ko'ra. *Ko'mir* (qanaqa?) *qora*, *bo'r esa* (qanday?)

Mazasiga ko'ra. *Garmdori* (qanday?) *achchiq*, *qand esa* (qanday?)... .

Shakliga ko'ra. *Qarg'a* (qanday?) *katta*, *chumchuq esa* (qanday?)

2-sinf ona tili darsligida antonim (qarama-qarshi) ma'noli so'zlarga bir qator mashqlar berilgan.

3-sinf ona tili darsligida ham antonimlarga oid mashqlarni birqanchasini ko'rishimiz mumkin.

Masalan: 266- mashq. Berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma'noli sifatlar tanlab, namunadagidek yozing.

N a m u n a: *uzun- qisqa*, ...

Uzun, yaxshi, katta, achchiq, baland, keng, qalin, yangi.

Fo y d a l a n i sh u ch u n s o' z l a r: kichik, yomon, past, chuchuk, eski, yupqa, tor.

Bu kabi mashqlardan bir qanchasini uchratish mumkin.

4-snif ona tili darsligida esa, antonim so'zlarni o'rgatish birmuncha murakkablashtirilgan bo'lib, qarama- qarshi ma'noli so'zlarni yozish uchun alohida mashq ajratilmagan, balki ma'nodagi o'zaro zidliklar, gaplar tarkibidagi, matn, sherlar tarkibidagi qarama-qarshi ma'noli so'zlarni aniqlash vazifalari ko'proq beriladi.

Paronimlar (talaffuzdosho'zlar) – ruschapara – “juft” va grekcha onyma yoki onoma – “nom” degani bo'lib, aytilishi bir-biriga yaqin, ammo yozilishi va ma'nosi boshqa-boshqa so'zlardir. Boshqacha aytganda, bir harf yoki bir tovush bilan farq qiluvchi so'zlar **paronimlardir**.

Paronimlar ko'pincha **bir tovushbilanbir-biridan farq qiladi**: asr – asir, shox – shoh, amr – amir. Paronimlar bir so'z turkumi doirasida yoki turli so'z turkumlari doirasida kuzatiladi: zirak (ot) – ziyrak (sifat); asr (ot) – asir (ot). Omonimla va paronimlar haqida aytilganda shu narsa ma'lumki, ko'pincha **orfoepiya** qoidalariga rioya qilmaslik yoki so'z fonetik strukturasi to'g'ri bilmaslikdan yuzaga keladi.

Paronimlarning quyidagi **turlari** mavjud:

- **lug'aviy (leksik) paronimlar**: shox – shoh, asl – asil, nufuz – nufus, dara – dala, dadil– dalil;
- **frazeologik paronimlar**: jonikirdi (rohatlanmoq) – jonkirdi (tetiklashmoq), og'zigaqaramoq (tinglamoq) – og'zigaqaratmoq (mahliyoqilmoq).

Uyadosh so'zlar bir turdagi narsa, belgi, voqea-hodisa, harakat ma'nolarini ifodalaydigan, bir mazmunli guruhga mansub bo'lgan so'zlardir: kiyim turlari:

ko‘ylak, shim, kostum,⁸ do‘ppi; rang turlari: oq, qizil, sariq; ruhiy holatni bildiruvchi harakat turlari: yig‘lamoq, kulmoq, xo‘rsinmoq.

Uyadosh so‘zlarni **sinonim so‘zlardan farqlash kerak**. Sinonimlar bir tushunchaning turli qirralarini ifodalaydi, uyadosh so‘zlar esa bir-biriga **yaqin tushunchalarni** ifodalaydi.

Qisqacha paronim lug‘ati

A

Abadiy – mangu	Adabiy – badiiy adabiyotga xos
Abro’ – qosh	Obro’ – e’tibor, hurmat
Abzal – ot, eshak, egar-jabdug‘i	Afzal – a’lo, yaxshi
Abgor – nochor, xarob	Afkor – fikrlar
Adib – yozuvchi	Adip – ko‘rpa, to‘n chetidagi mag‘iz
Adl – adolat	Adil – tik, egilmagan
Adresat – xat oluvchi	Adresant – xat yuboruvchi
Azm – qat’iy qaror, jazm	Azim – g‘oyat katta, ulkan
Ayon – ma’lum, ravshan	A’yon – amaldorlar
Alamon – olomon	Al’amon – omonlik uchun murojaat

⁸ WWW.google.ru sayti

Alo – ustiga: “Nuralonur”	A’lo – eng yuqori, eng yaxshi
Alam – jismoniy og‘riq	A’lam – diniy arbob, bosh muftiy
Alpoz – ahvol, vaziyat, holat	Alfoz – lafzlar, so‘zlar, iboralar
Amr – buyruq, farmon	Amir – podsho, xon (qad. Buxoroda)
Ariq – suv oqadigan joy	Oriq – ozg‘in
Artish – tozalash	Archish – po‘stlog‘idan ajratish
Asl – tub, negiz, haqiqiy	Asil – a’lo sifatli, eng yaxshi
Ato – in’om, sovg‘a	Ota – farzandli er kishi
Achipti – oshiq o‘yini turi	Achibdi – (qatiq) achibdi
Ahil – totuv, inoq	Ahl – bir sohaodamlari

B

Bad – yomon, yaramas	Ba’d – keyin, son’g
Badnafs – nafsi buzuvchi	Badnafas – nafasi sovuq
Bayon – yozmaish	Bayan – musiqa asbobi
Bazur – bahuzur, bermalol	Bazo‘r – zo‘rg‘a

Bakor – koriga yaramoq	Bekor – ishsiz
Bal – raqs kechasi	Ball – baho o‘lchov birligi
Band – modda, paragraf, mashg‘ul	Bant – sochga taqiladigan lenta
Barmoq – a‘zo	Bormoq – borish
Biyron – so‘zamol, gapdon	Biron – biror
Bikr – iffatli qiz, bokira	Bikir – pishiq, baquvvat
Birov – kimdir	Burov – burash, buramoq
Bob – kitobning qismlari	Bop – munosib
Bod – kasallik	Bot – tez, botmoq
Borlik – mavjudlik	Borliq – mavjudot
Boshda – avval	Boshida – yonida, oldida
Bog‘li – bog‘ibor	Bog‘liq – bog‘langan
Bud – bor-yo‘qnarsa	But – to‘liq, bekamu ko‘st
Burj – 12 ta yulduz turkumi	Burch – majburiyat
Buril – burilmoq	Burul – xoldor, ko‘kish (ot)

Burg‘i – parma	Burg‘u – qadimgi cholg‘u asbobi
Buqa – erkak qoramol	Buq‘a – madrasadagi hujra

D

Davo – dori-darmon	Da‘vo – arz, talab
Davr – vaqtoralig‘i	Dovur – otyopinchig‘i
Dadil – dovyurak	Dalil – isbot
Dala – ekin ekiladigan joy, maydon	Dara – ikki tog‘ oralig‘ida gijarlik
Darz – yoriq, yorilgan	Dars – mashg‘ulot, saboq
Dazmol – kiyim tekislaydigan asbob	Dastmol – qozon yuvgich
Daha – shaharning ma‘muriy bo‘lishi	Daho – kuchlizehn va iste‘dod
Devon – shoirning she‘rlari to‘plami	Divan – yumshoq mebel turi
Diplomat – davlat xizmatchisi	Diplomant – diplom yozuvchi kishi
Dub – daraxt	Dup – tovushga taqlid bildirgan so‘z

E

Ellik – son	Enlik – ikki enlik (xat)
-------------	--------------------------

Esiz (attang, afsus)	Essiz – esiyo‘q, nodon
Ehzon – qayg‘u hukm surgan	Eson – xayrliish, ezgulik

F

Faqir – kambag‘al	Paqir – chelak
-------------------	----------------

G

Ganj – boylik, xazina	Ganch – suvoq materiali, alebastr
Gilos – meva	Go‘los – to‘q jigarrang

I

Ilk – avvalgi	Ilik – suyak ichidagi yog‘simon modda
---------------	---------------------------------------

J

Jodi – o‘t qirqadigan asbob	Jodu – sehr
Juda – eng, g‘oyat	Judo – ayriliq

K

Kampaniya – ma‘lum ishlar tizimi	Kompaniya – korxona, birlashma
Kaft – qo‘lning qismi	Kift – yelka
Kat – yog‘och karavot	Kart – kart dumba

Kvadrat – teng yoqli to‘rtburchak	Kvadrant – doiraning choragi
Kontakt – aloqa, bog‘lanish	Kontrakt – shartnoma
Kuyindi – kuyishdan qolganiz	Kuyundi – kuyunmoq

L

Lahm – suyaksiz go‘sh	Lahim – yerosti yo‘li
Lop – birdan	Lof – mubolag‘a

M

Matal – hikmatli so‘zlar	Ma‘tal – kutib qolgan, muntazir
Metr – uzunlik o‘lchovi: 100 sm	Metr – hurmat bildiruvchi so‘z (frans.)

N

Nasha – narkotik modda	Nash‘a – estetik lazzat, huzur
Naq – xuddi, ayni	Naqd – puli darhol to‘lanadigan
Nufuz – obro‘, e‘tibor	Nufus – aholi

O

Olu – olxo‘ri	Oluv – olish
Ora – o‘rta	Oro – pardozi

Oxir – chegara, poyon	Oxur – hayvonlarga yem solinadigan joy
Oqlik – oqranglik	Oqliq – sut mahsulotlari
Orasida – o‘rtasida, ichida	Orasta – bezatilgan, yasatilgan

Q

Qad – qomat	Qat – qavat, qatlam
Qayd – ta’kid	Qayt – o‘qchish, qusish
Qala – o‘tinni taxla	Qal’a – shahar
Qalmoq – millat	Qolmoq – qolish
Qarz – qaytariladigan pul, buyum	Qars – tovush qarsetdi
Qari – keksa, mo‘ysafid	Qa’ri – chuqur yeri, osti, ichi
Qat’i – qat’i nazar	Qat’iy – uzil-kesil
Qiyq – tovush: qiyqetdi	Qiyiq – kiyiladigan ro‘mol
Qirlik – qirda turuvchi	Qirliq – junqaychi
Qism – bo‘lak	Qisim – siqim
Qolib – qolmoq	Qolip – oyoq kiyimi moslamasi

Quyildi – oqdi	Quyuldi – quyuqlashdi
Qura – qura boshladi	Qur’a – chek
Qurt – hasharot	Qurut – suzma qurut

S

Sada – daraxt turi	Sado – ovoz, tovush, aks-sado
Sayd – ov	Sayid – Muhammad payg‘ambar avlodlari
Sayl – bayram	Sayr – sayrqilmoq
Sanat – sanatmoq	San’at – badiiy ijodiyot turi
Saqov – ot, eshaklar kasalligi	Soqov – gung, tilsiz
Suyilmoq – sevilmoq	Suyulmoq – suyuqlashmoq
Surat – rasm	Sur’at – tezlik, temp
Surgin – surmoq	Surgun – badarg‘a

T

Tab – taft, harorat	Ta’b – kishining ichki tabiati, mijoz
Talat – talatmoq	Tal’at – yuz, chehra

Tambur – vagon kiraverishidagi bo‘lma	Tanbur – cholg‘uasbobi
Tana – gavda	Ta’na – gina, kudurat
Tarif – baholarko‘rsatkichi	Ta’rif – tavsif, tasvir
Tasir – tasir-tusur	Ta’sir – tazyiq
Taqib – taqib qo‘ydi	Ta’qib – yashirincha kuzatish
Tib – meditsina	Tip – toifa
Tub – tag, ost	Tup – o‘simlik, daraxtning hardonasi
Tutin – tutinmoq	Tutun – olov tutuni

U

Uzik – uzilgan	Uzuk – taqinchoq
Uyim – mening uyim	Uyum – to‘da
Ulish – ulimoq (it, bo‘ri)	Ulush – bo‘lak, hissa
Unim – mening (unim)	Unum – hosil, baraka
Urish – urmoq	Urush – jang

V

Vaqf – diniy muassasa mulki	Voqif – xabardor
Voqe – sodir (bo‘lmoq)	Voqea – hodisa

X

Xayoli – o‘yi, fikri	Hayoli – iffatli
Xalq – el, ulus	Halq – halqum
Xam – egik, quyi solingan	Ham – (men) ham
Xar – eshak	Har – harkim
Xiyol – sal, ozgina	Hayol – o‘y-fikr
Xiyla – ancha	Hiyla – makr, firib
Xil-xil – turli-tuman	Hil-hil – hil-hil (pishgan)
Xirs – ayiq	Hirs – kuchliistik, intilish
Xol – badandagi qora tug‘ma xol	Hol – ahvol
Xosiyat – xoslik holati	Hosiyat – his etish
Xur – tovush: xur-xur	Hur – erkin, ozod
Xush – yaxshi, ma’qul, durust	Hush – ong, aql, idrok, es-hush

Y

Yagana – ekinni siyraklatish	Yagona – yakka, tanho, yolg‘iz
Yetdi – yetib bordi	Yetti – son
Yolqin – olov yolqini	Yorqin – o‘tazorug‘
Yondash – yaqinlash	Yondosh – yonidagi
Yoriq – yorilgan	Yorug‘ – nur
Yuvindi – suv bilan tozalandi	Yuvundi – iflossuv

Z

Zafar – g‘alaba	Za‘far – sap-sariq rang
-----------------	-------------------------

Sh

Sher – hayvon, arslon	She‘r – vazn, qofiyali kichik badiiy asar
Shox – daraxt yoki hayvon shoxi	Shoh – podsho
Shuba – mo‘ynali qishki kiyim	Shu‘ba – bo‘lim, idora

1.4.Tarixiy va arxaik so‘zlar.

Tarixiy va arxaik so‘zlar. til uzliksiz harakatda, rivojlanishda bo‘ladi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi. Jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy – siyosiy hodisalar, ilmiy – texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma‘rifiy sohalardagi islohatlar tilning lug‘at boyligida yangi – yangi so‘z va atamalarning yuzaga

kelishini, ayni paytda ma'lum so'zlarning eskirib iste'moldan chiqishini taqozo qiladi.⁹

Til leksikasidagi so'zlar zamonaviyligi hamda eskilik va yangilik bo'yog'i borligiga ko'ra 3 qatlamga ajratiladi: 1) zamonaviy qatlam; 2) eski qatlam; 3) yangi qatlam.

Zamonaviy qatlam. Eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar zamonaviy qatlamni tashkil etadi. Zamonaviy qatlamga oid bunday so'zlar zamonaviy leksemalar deyiladi. O'zbek tili lug'at tarkibining asosiy qismi zamonaviy qatlamga mansub bo'ladi. Ular barcha kishilar uchun tushunarli bo'lishi bilan bir qatorda nutqda faol qo'llaniladi: bahor, qish, kuz, g'arb, sharq, yer, osmon, tog', tosh, ariq, yomg'ir, qor, daryo, yaxshi, yomon, chiroyli, tor, chuqur, go'zal, kim, biron, har kim, har qanday, tez, oz, ko'p, asta, yozmoq, ovqatlanmoq, uxlamok, yashamoq singarilar. Zamonaviy qatlamga oid so'zlarning ba'zilar nutqda faol qo'llanmasligi, tor mutaxassislik doirasida ishlatilishi mumkin. Masalan, terminalogik leksikaga oid so'zlar shunday so'zlardan bo'lib, ularning iste'mol doirasi chegaralangan. Lekin bundan qat'iy nazar terminlarning barchasi zamonaviy leksika hisoblanadi.

Eski qatlam. Bugungi adabiy til nuqta'iy nazaridan eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar asosiy faqli xususiyatlariga ko'raikki turga bo'linadi: 1) tarixiy so'zlar (istorizmlar), 2) arxaizmlar.

Hozirgi kunda mavjud bo'lmagan, yo'q bo'lib ketgan narsa, hodisalarning nomi istorizmlar deyiladi. Ma'lum davrlarda bor bo'lgan narsa vaqtlar o'tishi bilan, hayot taqozosiga ko'ra yo'q bo'lib ketishi mumkin. Narsa yo'qolgach, qo'llanishdan qolgach, tabiiyki uni ifodalagan so'zlar ham iste'moldan chiqib ketadi va tarixiy so'zga aylanadi. Amir, kanizak, cho'ri, mingboshi, qalami, qushbegi, sovut, qozi, mirshab, choriq, haram, yuzboshi kabilar tarixiy so'zlardir.

Istorizmlarga odatda uzoq tarixiyjarayon davomida yuz beradigan eskirish mahsuli bo'ladi. Ular ba'zan qisqa vaqtda ham paydo bo'lishi mumkin. Yaqin

⁹ Sh. Akramov, M. Boshmonov, M. Mamadiev "Hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan konspektiv kurs" Farg'ona-2004

o'tmishda o'zbek tilining faol so'zlari bo'lgan ayrim so'zlar (partkom, raykom, kolhoz, sovxoz) hozirgi kunda eskirib istorizmlarga qo'shilgani buning yorqin dalilidir.

Lekin arxaizmlar – hozirgi kunda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning eskirgan nomi yoki eskirgan ma'nosidir. Demak, eskirish jarayoni yo yaxlit so'zga, yo uning ma'nosiga aloqador bo'ladi. SHunga ko'ra leksik arxaizm ikki turga bo'linadi: 1) arxaizm leksema (so'z), arxaizm semema (ma'no).

Hozirgi paytda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarning eski nomi arxaizm leksema yoki arxaizm so'z deyiladi. Masalan, lab (odam organizmidagi a'zoning nomi) – dudoq (shu a'zoning eskirgan nomi). Demak, so'z shakli arxaiklashsada ma'no saqlanyapti. Yana, tilmoch (tarjimon), salloh (qassob), cherik (askar, armiya).

Olibmen taxti farmoning'a oson,

Cherik tortmay Xitoydin to Xuroson. (A.Navoiy).

Arxaizm semema – hozirgi tilda mavjud bo'lgan so'zning eskirgan ma'nosi. Masalan, g'am so'zi hozirgi o'zbek tilida (qayg'u, alam, tashvish, kulfat) kabi ma'nolarda qo'llanadi. O'tmishda esa bu so'z (ishq, muhabbat, sevgi) ma'nolarini ham ifodalagan. Bir yuzi gulgun g'midin yuz turgon ko'nglimdadir. (Bir gul yuz ishqida tuz tikon ko'nglimdadir). Hozirgi g'am so'zining «ishq, muhabbat» ma'nolari eskirgan bo'lib, arxaizm semema hisoblanadi. yoki g'arib so'zi hozirgi o'zbek tilida «bechora, nochor» degan ma'noni anglatadi. Lekin eski o'zbek tilida bu so'z «ajoyib» degan ma'noni ham bildirgan. (hozirda g'aroyib shaklida qo'llanilishi buni isbotlaydi). Yana yog'och so'zi ham qadimda hozirgi «kesilgan daxtning tanasi» ma'nosidan tashqari «daraxt» ma'nosida ham qo'llangan: Archa yog'och ko'p edi.

Demak , arxaizm semema yuzaga kelishi uchun so'z ko'p ma'noli bo'lishi shart, qadimda ko'p ma'noli bo'lgan so'zning ayrim manolari hozirda unutilib, u faqat bitta ma'nogagina ega bo'ladi va arxaizm ma'nohosil bo'ladi.

Ba'zan so'zning o'zi yoki ma'nolaridan biri emas, balki talaffuzi eskiradi, natijada shu so'zning eskirgan talaffuz varianti yuzaga keladi. Masalan, bugun – bukun, kastar – kabutar, u – ul.

Istorizm va arxaizm leksemalarning har ikkisi ham eskilik bo'yog'iga ega bo'lsada, ular quyidagi xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi:

1. Arxaizm hozirgi kunda mavjud bo'lgan narsa – hodisalarning atamasi. Istorizm esa bugungi kunda mavjud bo'lmagan narsa – hodisalarning atamasi.

2. Arxaizmlarning zamonaviy qatlamda o'z sinonimlari bor bo'ladi. Istorizmlarning esa sinonimlar bo'lmaydi.

3. Arxaizmlarning eskirganligi uning sinonimlariga qiyosan baholanadi. Istorizm esa bu imkoniyat yo'q. Istorizmlarning eskirganligi davrga ko'ra baxolanadi.

4. Istorizm birdan – bir, yakka nom, uning o'rnini bosuvchi so'z yo'q. Arxaizm esa bir necha nomlardan birining eskirgani; uning o'rnini bosuvchi so'z bor.

5. Arxaizm asosan tilning o'z taraqqiyoti qonunlari bilan izohlanuvchi hodisa. Istorim esa jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti tarixiga ko'ra izohlanadi.

6. Istorizmni nolisoniy omil tug'diradi. Arxaizm esa lisoniy omillar asosida vujudga keladi.

So'zlarning ishlatilishi darajasiga ko'ra guruhlar . Bu jihatdan tilimizdagi so'zlarni ikkita guruhga bo'lishimiz mumkin:⁸

1. Umumxalq ishlatadigan so'zlar kundalik turmushda hammaning nutqida tez – tez qo'llanadigan so'zlardir: non, suv, bugun, kim, besh, yaxshi, sotdi va boshqalar. Bularni yana faol so'zlar ham deyish mumkin. Ular tilning asosiy so'z boyligidir.

2. Umumxalq ishlatmaydigan so'zlar turli sabablarga ko'ra kundalik turmushda hammaning nutqida ham tez – tez qo'llanavermaydigan so'zlardir. Bularni yana nofaol so'zlar ham deyishadi.

Eskirib qolgan so'zlar – kundalik hayotda ishlatilmaydigan bo'lib qolgan so'zlardir. Jamiyat to'xtovsiz rivojlanib boradi. Yillar o'tishi bilan mehnat

qurollari, kiyim – kechak, uy jihozlarining yangi nushalari paydo bo'ladi, eskilarining ba'zilar ishlatilmaydigan bo'lib qoladi, natijada ularni ifodalovchi so'zlar ham bora – bora juda kam qo'llanadigan yoki iste'moldan chiqib ketadi. Eskirgan so'zlar ikkita guruhga ajratiladi:

a) tarixiy so'zlar – hozirda mavjud bo'lmagan narsa – hodisalarning iste'moldan butunlay chiqib ketgan nomlaridir: mingboshi, ellikboshi, kanizak, omoch, dodhoh, mumsik, halfa, mo'ndi....

b) arxaik so'zlar hozirda mavjud bo'lgan narsa – hodisalarning eskirib qolgan atamalaridir. Bunday so'zlar iste'moldan chiqish arafasida turgan, hozirgi tilda sinonimi bo'lgan so'zlardir (hozirgi tilda sinonimlari berilgan): rayon (tuman), ekspres (tezyurar), oblast (viloyat), vrach (shifokor), hirurg (jarroh), injiner (muhandis), redaktor (muharrir), redaksiya (tahririyat), ulus (xalq), bitik (yozuv)...

Arxaizmlar (eskirgan so'zlar) o'tgan davrda qo'llanib, hozirgi kunda iste'moldan chiqqan so'z, so'z birikmasi qo'shimchalardir: ashu (qizil tuproq), ashuq (temir qalpoq, dubulg'a), aqru (sekin).

Qadimgi tilimizda tushum kelishigining -(i)g yoki (i)g' shakli (sabig' eshitib – so'zini eshitib), jo'nalish kelishigining -ra/- ru shakllari (og'uzg'aru – og'izga) va -(i)n qo'shimchali vosita kelishigi bo'lgan (eligin tutdi – qo'li bilan ushladi).

Tarixiy so'zlar esa yaqin o'tmishda qo'llanilib kelingan so'z, so'z birikmasi, qo'shimchalardir: ajoyibxona (muzey), muxoraba (urush), mingboshi, qozi, faqir, arshi a'lo kabi.

Arxaizm bilan tarixiy so'zlarning farqi shundaki, arxaizm hozirgi davrda qo'llanmaydigan, tushunarsiz so'zlar bo'lib, tarixiy so'zlar esa ma'nosi tushunarli, ba'zan yozma adabiyotda qo'llanadigan so'zlardir.

Arxaik va tarixiy so'lar, qo'shimchalar badiiy va ommaviy uslubni hosil qiladi.

Arxaizm va tarixiy so'zlar yozma adabiyotda tarixiy davrni tasvirlash uchun, uslubiy ma'noda esa asar qahramonini ta'riflash, uning eskilikka moyilligini ko'rsatish, mazah, kulgu mazmunida qo'llaniladi.

Kes rishtangniki, qilsin chapaklar otib jasta,

Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari hasta. (F).

Bir jamoa mo'minlarga amir bo'lgan zotning vazifayi shar'iyi shuldurkim, islomda ustuvor turg'ay, ahkomi islomni kamokon ijro qilg'ay. Har bir amiriki arkoni islomdan zarracha yuz o'g'irsa, u kimarsa jamoiy islom ustiga samir emas, sharirdir. Nauzan billohkim, Farg'ona va turkiston mamlakatining alhol amiri bo'lgan Muhammad Alixon Volidiyning mankuhasi, ya'ni volidayi ayni va rizosini o'z aqdiga olibdur. (A. Qodiriy.)

Bundan tashqari tarixiy va arxeak so'zlar boshlang'ich sinf o'qish kitobi darsliklari matnlarida ham uchratish mumkin. Bu so'zlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarsiz. Shuni hisobga olib, bu matnlarni o'qitishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi lug'at ustida ish olib borish kerak. Masalan, uchinchi sinf o'qish kitobi darsligidagi Yusuf Hos Hojibning "Bahor tarifida" matnida ham tarixiy va arxaik so'zlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, ushbu matndagi mushk-anbar – atirga o'hshash ifori, kofur – oq rang, ifor – yoqimli hid.

1-bob Xulosasi.

Badiiy matnni boyitishda yuqorida berilgan omonim, sinonim, antonim, tarixiy va arxaik so'zlarni o'rganish muhim sanaladi. Ayniqsa boshlang'ich siniflarda o'quvchilarga bu kabi so'zlar haqidagi malakalarini oshirish murakkab jarayon bo'lib bu o'qituvchidan chuqur bilim va yuksak darajadagi mahoratni talab qiladi. O'quvchilar so'z boyligini oshirishda, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda bu so'zlardan keng foydalaniladi.

Omonim so'zlarni o'rganish o'quvchidan ziyraklikni talab qiladi, chunki omonimlar ko'rinishidan o'quvchilarga ko'p ma'noli so'zlarni eslatishi tabiiy. Lekin mahoratli pedagog buni osongina farqlash yo'llarini o'quvchilarga tushuntirib o'tishi lozim.

Sinonim (ma'nodosh so'zlar) o'rganishda boshlang'ich sinf darsliklarida ot, sifat va fe'l so'z turkumlarini o'qitish jarayonida duch kelamiz. Sinonim so'zlarni o'rganish o'quvchilar so'z boyligini oshirishda juda ahamiyatli vazifa hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek sinonimlarni ma'nolari orasidagi yaqinliklar, farqlar ularning so'zlarni bir-biridan farqlashda, mantiqiy fikirlashga o'rgatishda yordam beradi.

Antonim (qarama-qarshi ma'noli so'zlar)ni o'rganish o'quvchilarda qiyinchiliklar yuzaga keltirmaydi. Bu so'zlar o'quvchidan faqatgina ziyraklik, izlanuvchanlikni talab qiladi. Chunki bu so'zlardan birini aytganimizda ikkinchisi ko'z oldimizda gavdalanadi, boshlang'ich sinf o'quvchilari bu so'zlarni o'rganishda, mashqlar bajarganda qiziqish bilan o'rganadilar, ma'nolar orasidagi zidlik munosabati to'g'risida malaka va ko'nikmalar hosil qiladilar. Antonim so'zlar o'rgatish o'quvchilar lug'at boyligini oshirishning eng qulay va oson yo'lidir. Chunki bu so'zlarni birini aytganimizda o'quvchi uning qarshi ma'nolisini osongina topishni o'rganadi.

Tarixiy va arxaik so'zlar to'g'risida aniq ma'lumotlar asoslab berilgan bo'lsada bu o'qituvchidan kuchli e'tiborni talab qiladi. Boshlang'ich sinf darsliklarida bu to'g'risida juda kam mashg'ulotlar berilgan. O'quvchilarda

bu soʻzlar haqida maʼlumot berilgandan soʻng , mashqlar bajarishda shoshmashosharlikka yoʻl qoʻymaslik kerak. Tarixiy va arxaik soʻzlarni oʻrganishni oʻqish darslari bilan ham bogʻlab olib borish maqsadga muvofiq. Oʻquvchilarning asarlarga boʻlgan qiziqishini orttiradi, oʻzlari uchun nomaʼlum boʻlgan soʻzlarni yaratishga imkon yaratiladi. Bu mavzuni tez-tez takrorlab turish ularda koʻnikma hosil qilishga yordam beradi.

Yuqorida yoritib berilgan badiiy matnni boyituvchi leksik vositalar bolalar nutqini bezashda, ularni maʼnaviy dunyosini boyitishda, ongli fikirlashga oʻrgatishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

2.Bob

2. bob Didaktik o'yinlar va ularning ahamiyati

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni ro'yobga chiqarishning 2-bosqichi ta'lim mazmuniga yangi pedagogik texnologiyalarni keng qamrovda olib kirish vazifasini qo'yimoqda. Bu esa barcha pedagoglar zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Respublikamiz olimlari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy – pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «pedagogik texnologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Ilg'or pedagogik texnologiya» kabi tushunchalar keng qo'llanilmoqda va turlicha izohlanmoqda.

Bular orasida YUNESKO tomonidan berilgan quyidagi ta'rif e'tiborga loyiqdir: «pedagogik texnologiya bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir».

Texnologiya so'zi yunoncha bo'lib, texne – mahorat, sanhat; logos – ta'limot ma'nolarini bildiradi. Bu so'z sanoatda yoki qishloq xo'jaligida tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonida qo'llanadigan usul va metodlar yig'indisini bildiradi. Ta'lim jarayoniga nisbatan esa bu tushuncha o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularni ketma-ketligi va bosqichma-bosqichligini ta'minlash, rejalashtirilgan barcha ishlar va amallarni talab darajasida bajarishni anglatadi. Boshqacha aytganda, ta'lim texnologiyasi tushuncha ta'lim berish san'ati, ta'lim berish mahorati ma'nolarini ifodalaydi. Yangi pedagogik texnologiya deyilganda, ta'lim berish sanhatini ishga solib, uni samarali tashkil etish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish tushuniladi.

Pedagogik texnologiya atamasi ta'lim jarayoniga yangicha, o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan tizimli yondashuvga asoslanadi. Bu ta'lim

jarayoniga innovatsion yondashuv demakdir. Yangi ta'limni tashkil etishda jahon pedagogikasi amaliyotida qo'llaniladigan ilg'or metod va usullar, texnika vositalari, o'qitishning shakllarini tarbiya jarayoniga har bir o'quvchi shaxsi, ruhiy o'ziga xosligi, intellektual imkoniyatlari, milliy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda olib kirish demakdir.

Yangi pedagogik texnologiya o'quvchiga ta'lim jarayonining sub'ekti, ya'ni faol ishtirokchisi, o'qituvchiga esa shu jarayonning tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida qarashni taqozo etadi.

Yangi pedagogik texnologiya bo'yicha o'qitishda quyidagilar ta'limning asosiy parametrlari hisoblanadi:

1. Butun o'quv vaziyati boshqaruv ob'ekti sanaladi.
2. Ta'limni boshqarish maqsadli bo'lib, o'quvchining mohiyatli, ma'naviy va ruhiy kuchlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.
3. Ta'lim jarayoni demokratik, rag'batlantiruvchi uslubda bajariladi.
4. Ta'lim jarayonining zaruriy sharti o'quvchining shaxsiy tashabbusini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchi shaxsining ochiqqligi, ularning hamkorligi o'zaro ishonchli munosabatlarni yuzaga keltirishdir.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos tamoyillarga ega bo'lib, bular quyidagilardir:


1. Muayyan dars, mavzu, qism, o'quv predmetidan kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.
2. Umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilgan maqsadni va modullar ichida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish.
3. Modul ichida yechiladigan masalalarning har bir bo'yicha test savollarini tuzib chiqish.
4. Maqsadlarga yetish usullari tanlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarni belgilab olish.
5. Dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish.

Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator o'qitish usullari haqida so'z yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida qo'llanishi mumkin bo'lgan ayrim metodlar xususida so'z yuritamiz. Didaktik o'yinlar bevosita o'quvchini o'zini namoish etishga tafakur doirasini kengaytirishga, xar qaysi mashq-topshiriqlarni zo'r qiziqish bilan bajara olishga undaydi. Bolada ham tarbiyaviy, ham ta'limiy sifatlar shakllanishiga imkon yaratadi. Jumladan: ziyraklik, topqirlik, chaqonlik, xushyorlik, bilimdonlik, qat'iylik, chidamlik, matonat, ijodkorlik, mustaqillik kabilar. Bu sifatlarni tarbiyalashda o'yin turlaridan foydalanish qo'l keladi.

Bolalar hayoti rang – barang faoliyat va voqelik dunyosida bevosita aks etib boradi. Bunda mazmunli didaktik o'yinlar mustaqil faoliyat qoidolari asosida tashkillansa, u o'quvchini pirovard natijasida chuqur bilish olishga, mazmuni mukammal va oson tushunishga, fan asoslarini mahorat bilan egallashga undaydi. Shuning uchun bola hamisha, hatto muhim faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan paytda ham o'yin bilan shug'ullanishi zarur. Didaktik o'yinlar bolalar hayoti va faoliyatini uyushtirish, uni shakllantirish, bilish doirasini kengaytirish maqsadida foydalanib borilsa, u juda muhim ta'lim va tarbiya asosi hisoblanadi.

Didaktik o'yin qoidali va tizimli tarzda bola shaxsiga to'g'ri tahsir etishi va mazmuni to'liq tushunishi, ko'nikma va malakalarini mukammal rivojlantirishi uchun qo'shimcha tarzda kattalarning va o'rtoqlari, ayniqsa o'qituvchining talabchanligi katta ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinda quyidagi faoliyat turlari shakllanadi:



Didaktik o'yin mazmundorligini oshirishda intellektual o'yin, harakatli o'yin va aralash turdagi o'yinlardan keng qamrovda foydalanish o'quvchida aqliy, jismoniy, axloqiy, psixik va estetik mahoratni, ko'nikmalarni shakllantiradi.

Psixolog olimlar didaktik o'yinlarni yo'nalishlari bo'yicha beshta asosga olib borishni ma'qullaydilar va ular quyidagilar:

1.Nazariy o'yinlar. Bu o'yinlar orqali bolalar mavzuni ilmiy asosda oson va sodda tushunchalariga imkon yaratiladi.

2.Amaliy o'yinlar. Bu o'yinning asosiy mazmunida o'quvchi amaliy mashqlarni o'yinlar orqali tushunib borishga, uning faol ishtirokchisiga aylanishiga ehtibor beriladi.

3.Jismoniy o'yinlar. Yosh shaxsning jismoniy barkamolligi, aqliy, ruhiy sog'lom bo'lishi, bola organizmi har tomonlama rivojlanishida jismoniy o'yinlar muhim ahamiyatli sanaladi.

4.Rolli o'yinlar. Bu o'yinda bolalar o'zlarini ma'lum bir rolni, yoki biror kasb egasi rolini, uning vazifasini bajarayongandek his etadilar. Bolalarda o'yin orqali mustaqillik, ongli harakatlar yuzaga keladi.

5.Ishchanlik o'yinlari. Bu o'yinning mazmuniga ko'ra bolaning mehnat ko'nikmalarini hosil qilishga, ijodiy fikrini amalga oshirishga yo'l beriladi.

Ishonchlilik o'yinlari asosan ikki xis bo'ladi. Ular ijodiy va qoidali o'yinlar tarzida tashkil etiladi.

Ijodiy o'yinlarda bolalar o'zlari uyinning mazmun-mohiyatini to'la anglaydilar, va bu ijodiy o'yinlarning asosiy qismini qiziqarli rolli o'yinlar tashkil etadi.

Dramatik o'yinlar ham ijodiy o'yinlar sarasiga kiradi, u hikoya va ertaklardagi voqea ta'sirini ifodalashdan iborat bo'lib, unda badiiy qahramonlar tasvirlanadi. Natijada o'quvchilarning nutqi tasirchanligi, xarakat tezligi bo'ladi.

Bu qoidali o'yinlar xarakter xususiyatiga ko'ra didaktik va xarakatli o'yinlar deb tasniflanadi.

Shunday ekan, biz qaysi bir didaktik o'yinga murajat qilmaylik, uning intiqosi sifatida bolaning aqliy qobiyati, mantiqiy tafakkuri, nutqiy ko'nikmasini, so'z boyligining oshishi, bolaning erkin fikrlashi, zehni har bir darsni mustaqil o'zlashtira olishiga ijobiy ta'sir eta olishini kuzatamiz.

Didaktik o'yinlar qiziqarli o'tishini taminlovchi muhim shartlardan biri uning o'z mazmun mohiyatiga ko'ra o'yin tarzida o'tishi va dars mashg'ulotiga

o'xshab qolmasligidir. Binobarin bu didaktik o'yiniga quvnoqlik, xusandlik ko'tarinkilik, ruhini hosil qilib, bolaga ijobiy xislar kamol topishiga bevosita zamin yaratadi.

Didaktik o'yinni mufafaqiyatli tashkil qilinishida bolalarning bajariladigan o'yinda faol bo'lishi qiziqishlarini taminlash muhim omil hisoblanadi, shuningdek didaktik o'yinlarni hal qilishda pedagogning tashkilotchilik qobiliyati qo'l keladi. O'yinni tashkil va unga mos o'yinlarni to'g'ri tanlay bilishiga o'qituvchi o'yin qoidalari asosida ish olib boradi va uni oldindan rejalashtirib oladi. O'qituvchi bolalarni bir sinf yoki guruhli shaklda tanlashi mumkin. Baza shunday holatlar bo'ladiki, yaxshi kayfiyatda bo'layotgan o'yin birdan shovqin, notinchlik, intizomsiz xolatga almashinadi.

Bunda o'qituvchi bir necha bolaga tanbeh berishi natijasida bolalarning o'yin kayfiyati pasayadi.

O'qituvchi nohush vaziyatni o'quvchilarga tarbiyada intizomlilikni ta'minlash o'yin qoidasining asosi ekanligini uqtirishi maqsadga movfiqdir.

Mahoratli o'qituvchi didaktik o'yinlar asosida nafaqat o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi, balki ular bilimini yanada boyitadi va yangi-yangi o'yinlar loyihasini tuzishga harakat qiladi, talim-tarbiya samaradorligiga erishadi.

Mohir pedagog ta'limga o'yin texnikasini to'g'ri qo'llashi uchun quyidagi komponentlardan foydalanishlari zarur:

1. Tashkiliy shakl;
2. Didaktik jarayon;
3. O'qituvchi darajasi;

Shuningdek, didaktik o'yinda ishtirokchilar tarkibi, ishtirokchilar soni, o'quv jarayoni va vaqt mehyori hisobga olinadi.

1.Keyingi bo'g'inni top o'yini

O'yinning maqsadi: o'quvchilarda so'zlarni tez va ravon o'qish ko'nikmasini oshirish, ziyraklikka, topqirlikka undash.

O'yin qoidasi:

Bo'g'inlar ishtirokida so'z tuzish kerakligi tushuntiriladi. Buning uchun o'quvchilar unli va undosh tovushlarni, harflarini o'rgangan bo'lishlari shart.

O'yinning borishi:

O'qituvchi o'quvchilarga berilgan bo'g'inlar ishtirokida so'z tuzish kerakligini tushuntiriladi. Qaysi o'quvchi ko'p so'z tuza olsa, rag'bartlantirib boriladi.

Masalan: bo, ni, sa, mu, ko, lo kabilar.

— bobo, bozor, bola, bodom...

— nina, nima, niyat, nido, nigoh...

— sana, sado, saroy, sadaf...

— mushuk, musiqa, munis, mudofa...

— kosa, kotib, koma...

2. "Sirli kataklar" o'yini:

O'yinning maqsadi: birgina tovush orqali farq qiluvchi so'zlar qatori tuza olishga o'rgatish.

O'yin qoidasi: Berilgan so'zga mos qofiyadosh so'zlar qatorini tuzish va "sirli katak" larni to'ldirish to'shiriladi.

O'yinning borishi.

O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. "Sirli katak" dagi birinchi so'z ko'rsatiladi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, unga mos qofiyadosh so'zlar to'adi. Kataklarni birinchi bo'lib to'ldirga¹⁰n guruh g'olib sanaladi.

Masalan, n o n

non non

kon jon

ton kon

¹⁰ E. Abdurahmonova O'yin vositasida o'quvchilar bilimini mustahkamlash. Toshkent, "O'qituvchi". 1985 yil.

jon	ton
son	son
shon	shon
fon	qon
qon...	fon...

3. “Savol-javob” o’yini.

O’yin maqsadi. Rasm asosida kichik hikoya tuza olish ko’nikmalarini shakllantirish, so’z boyliklarini oshirish, qiziqishlarini asosida kasbga yo’naltirib borishga erishish, estetik didlarini oshirish, hayotga muhabbat ruhida tarbiyalashdan iborat.

O’yin qoidasi.

Muammoni mazmuniga ega rasm asosida savollarga ketma-ket javob berish, kimda – kim biror savolga javob to’a olmasa, o’yindan chetlatilishi, hamma savollarga javob bera olgan o’quvchi g’olib sanalishi ko’rsatiladi.

O’yinning borishi.

O’yin qoidasi o’quvchilarga tushuntiriladi. Hoxlagan o’quvchilar tanlab olinadi. Boshlovchi o’quvchi mavzuga mos muammoli mazmunga ega rasm asosida tanlangan o’quvchilarga navbatma-navbat savol berib boradi. O’quvchilar savollarga tez-tez javob berib boradilar. Javob berishda tutilib qolgan yoki sukut saqlagan o’quvchi o’yindan chetlatib boriladi. Oxirida qolgan o’quvchi rasm asosida bog’lanishli kichik hikoya tuzishi talab qilinadi. Uning javobi tinglanib, rag’batlantiriladi.

Bu kabi savol-javob o’yini boshlang’ich sinflarning 3-4-sinflarida o’tkazilgani maqsadga muvofiq. O’quvchilarda erkin fikrlash qobiliyati, so’z boyligi, o’zini tuta olish, muammoli vaziyatdan to’g’ri chiqa olish ko’nikmalari bevosita shakllantirib boriladi. O’yin ko’proq mustahkamlash darslarida o’tkaziladi.

4. “Qaysi soʻz noʻrin?” oʻyini.

Oʻyin maqsadi. Soʻzlarni turlarga toʻgʻri ajratish koʻnikmalarini shakllantirish, ziyraklik, bilimlilik sifatlarini tarbiyalash, befarqlikning oldini olishga erishish, estetik didlarini oʻstirishga erishishdan iborat.

Oʻyin qoidasi.

Bir necha soʻzlar qatori koʻrsatiladi. Soʻzlar turiga mos boʻlmagan soʻz aniqlanadi. Ularni bir nom bilan nimalar? deb atash, yaʼni umumlashma soʻzlar tanlash zarurligi belgilanadi. Bu oʻyin koʻproq kichik guruhlar shakllantirilgan darslarda qoʻllaniladi.

Oʻyinning borishi.

Oʻquvchilar 2,3,4,5 ta guruh asosida musobaqa darsi oʻtkazilayotganda, kichik guruhlar uchun soʻzlar qatori yozilgan tarqatmalar beriladi. Oʻquvchilar keraksiz soʻzni ajratib, soʻzlarni bir nom bilan jamlaydilar.

Masalan,

1-guruh. Olma, nok, qovun, uzum.

-olma, nok, uzum – mevalar.

2-guruh. Moychechak, binafsha, lola, bodom.

-moychechak, binafsha, lola – gullar.

3-guruh. patir, baton, obi non, bulka, pechenye.

-patir, baton, obi non, bulka – non turlari.

4-guruh. Toʻn, etik, tufli, kovush.

-etik, tufli, kovush – oyoq kiyimlari.

5-guruh. Ruchka, chizgʻich, rangli qalam, oʻquvchi, boʻyoq.

-ruchka, chizgʻich, rangli qalam, boʻyoq-oʻquv qurollari.

Mavzu: Ot soʻz turkumi.

Sinf: 4

Taʼlimiy maqsad: Oʻquvchilarning yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanib shaxs va narsalarning nomini bildirgan soʻzlarni tushuntirish.

Tarbiyaviy maqsad: Aniq va chiroyli yozishga oʻrgatish

Rivojlantiruvchi maqsad: Oʻquvchilar bilimini mashqlar orqali rivojlantirish

Uslub: Tushuntirish, savol-javob

Jihozi: Koʻrgazmali qurol, sabzi va olma terish oʻyini uchun material, rasmlar.

DARSNING BORISHI

I. I. Tashkiliy qism.

Davomatni aniqlash, oʻquvchilar salomatligini nazorat qilish

O'quvchilarni darsga tayyorlab olinadi.

O'qituvchi: Bolajonlar bugun hamma sog'ommi

Darsga tappa-tayyormi?

O'quvchilar: Ustoz bizlar sog'lommiz

Darsga tappa-tayyormiz.

O'qituvchi: Darsimiz

O'quvchilar: Ona tili

Darsimiz ona tili.

Maqsadimiz: «Aniq va chiroyli yozish qoidalarini yoddan bilish»

Ona tili (she`r)

Ona tilim jonu dilim

Senla kamol topdi elim.s

Ona tilim jonu dilim

Ta`zim senga berding bilim

O'qituvchi: Burchimiz

O'quvchilar: A'lo o'qish, a'lo xulq

O'qituvchi: Bugun kimdir navbatchi

Yo'qlamani bersinchi.

Navbatchi: Menman bugun navbatchi

___ ta o'quvchi

Darsga tayyor hammasi

A'lo o'qir barchasi

O'qituvchi: Bugungi sana

Navbatchi: Bugun 2014 yil «Sog'lom bola yili»ning ___ - _____ sanasi

Musiqa sadolari ostida bir she'r eshitiladi.

Bir o'lkaki to'prog'ida oltin gullaydi,

Bir o'lkaki qishlarida shivirlar bahor.

Bir o'lkaki sal ko'rmasa quyosh sog'inar,

Bil o'lkaki g'ayratidan asabi chaqnar.

Bu o'lkani nomini toping bolalar.

-O'zbekiston

-O'zbekiston qachon o'z mustaqillik bayramini nishonlaydi?

- 1991-yil 1-sentyabr

-Xattaxtada berilgan ushbu so'zlar ma'nosini bilasizmi?

-Mustaqillik- bu birovga qaram bo'lmaslik, o'z xohish istagi bilan kelajakka intilishdir.

-Istiqlol- deganda biz mamlakatimizni 23 yildan buyon hukm surib kelayotgan erkinlik va ozodligini tushunamiz.

-Ozodlik- bu bunyodkorlikka ochilgan oydin yo'l.

-Erk deganda biz erkinlikni erkin parvoz eta olishlikni tushunamiz.

-Istiqlol- bu biz orzu qilayotgan yorqin kelajak.

-Ma'rifat nima?

-Ma'rifat- arabcha so'zdan olingan bo'lib, bilish, izlanish, o'rganish degan ma'nolarni bildiradi.

-Ma'naviyat nima?

-Ma`naviyat- xalqning, davlatning, insonning kuch qudratidir.

O'qituvchi: Rahmat. Bugungi darsimizni

musobaqa tarzida o'tkazamiz.

O'quvchilarni 2-guruhga bo'lib olinadi. Har bir guruh sardori o'z guruhi uchun nom tanlaydi.

Masalan:

1-guruh: A.Navoiy

2-guruh: Mirzo Bobur nomlari bilan ataladi.

Har bir guruh o'z nomlari haqida ta`rif berishadi. (tanishuv)

Rasm bilan ishlash

2 guruhdan 1 tadan o'quvchi rasmni tasvirlab hikoya qilishadi.

1-guruh: Sinf xonasini tasvirlaydi

2-guruh: "O'lkamizda bahor" mavzusini tasvirlaydi

II. O'tilgan mavzu.

Test

4 ta savoldan iborat daftarlariga yozib javob topishadi.

1. Unli tovushlar bo'g'in hosil qiladimi?

a) ha b) yo'q d) hosil qilmaydi

2. Dildora kitob o'qidi.

Gapda shaxsni bildirgan so'zni toping

a) kitob b) Dildora d) O'qidi

3. Alifbo nima?

a) barcha harflar b) undosh harflar

d) tartib bilan berilgan barcha harflar

4. Gap nima?

a) Gap tugallangan mazmunni bildiradi

b) so'rash uchun kerak bo'ladi

d) kim so'rog'iga javob bo'ladi

1	2	3	4	
---	---	---	---	--

A	B	D	A	
---	---	---	---	--

1-guruh sabzi terib savolga javob beradi.



2-guruh bog'da olma teradi.



(to'g'ri javob bergan o'quvchi olmani sabzini o'ziga oladi)

Dam olish soati

“Qaysi so'z noo'rin?” o'yini.

O'yin maqsadi. So'zlarni turlarga to'g'ri ajratish ko'nikmalarini shakllantirish, ziyraklik, bilimlilik sifatlarini tarbiyalash, befarqlikning oldini olishga erishish, estetik didlarini o'stirishga erishishdan iborat.

O'yin qoidasi.

Bir necha so'zlar qatori ko'rsatiladi, so'zlar turiga mos bo'lmagan so'z aniqlanadi. Ularni bir nom bilan nimalar? deb atash, ya'ni umumlashma so'zlar tanlash zarurligi belgilanadi.

O'yinning borishi.

O'quvchilar 2 guruh asosida musobaqa tarzda o'tkaziladi, guruhlar uchun so'zlar qatori yozilgan tarqatmalar beriladi. O'quvchilar keraksiz so'zni ajratib, so'zlarni bir nom ostida jamlaydilar.

1-guruh. Olma, nok, uzum, qovun, moychechak, binafsha, lola, chuchmoma, gultojixo'roz.

Olma, nok, uzum – mevalar.

Moychechak, lola, binafsha, chuchmoma – gullar.

2-guruh. Patir, baton, obi non, bulka, pechene, ruchka, chizg'ich, o'chirg'ich, daftar, rangli qalam, o'quvchi, bo'yoq.

Patir,

Yangi mavzu: Ot – so'z turkumi.

Otlar shaxs va narsalarning nomini bildirib, kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Ular ma'nosiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi.

1. Shaxs nomlari. 2. Narsa nomlari. 3. Joy nomlari.

Otlar birlik va ko'plik shaklida qo'llaniladi.

Otlar egalik qo'shimchalari –m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i shaxs va narsa-buyumlarning qaysi shaxsga qarashlilikini bildiradi.

151-mashq.

Shaxs nomlari: Davronjon, Mancho Jekov, Xaskovo.

Narsa nomlari: paxta, yer, traktor, chigit.

Joy nomlari: bolgariya, qishloq.

162-mashq.

Jajjigina barmoqchalar**ing**,

Harakatdan to'xtamas bir zum.

Sen chizgan gul, bayroqchalar**ing**,

Bayram uchum sovg'adir, qiz**im**

Onang shunda ochar keng quchoq,

Go'yo ko'kka yetganday bosh**i**.


Sensan doim unga ovunchoq,

Sen onangning kichik yo'ldoshi.

Jajji – kichik, mitti.

O'quvchilarga mashqlar ichida tushunmagan so'zlari izohlanadi: masalan: **dovon** – tog' va tepalikning oshib o'tsa bo'ladigan qulay joyi, **anvoyi** – turli-tuman, rang-barang, **suruv** – qo'y-echki podasi.

Mustahkamlash:



Kasb haqida rasm asosida harakatni bildirgan so'zlar qatnashgan gap tuzib yakunlanadi.

Boshqotirma 2 guruhdan 1 tadan o'quvchi chiqib 10 ta so'zdan iborat so'zlarni bosh harfini yozadi. Shunda «O'qigan o'zar» so'zi kelib chiqadi.

O'rik

Qurbaqa

O'rgimchak,

Zebra

Ilon

Arra

Gul

Ruchka

Ayiq

Narvon

V. Uyga vazifa:

195-mashq tushuntiriladi.

VI. Baholash.

Guruhlar bo'yicha yig'ilgan ballar jamlanib g'olib guruh aniqlanadi. Rag'batlantiriladi. Baholar izohlanadi.

5. “Kungaboqar” o'yini.

O'yin maqsadi.

So'z yasovchi qo'shimchalar asosida yangi so'z yasay olish ko'nikmalarini oshirishga, bilimlarini charxlashga, topqirlik, ziyraklikka undash. Estetik ruhda tarbiyalash, ekologik madaniyatni yuksaltirish.



O'yin qoidasi.

Kungaboqar gulbarglarini mos so'zlar bilan to'ldirish, qaysi guruh avval topshiriqni bajarsa, g'olib sanalishi eslatiladi.

O'yinning borishi.

O'quvchilar 5 yoki 6 guruhga ajratiladi. Oq qog'ozdagi kungaboqar yaproqchalariga mos o'zak so'zlarni topib yozish va uni gulbarglariga yopishtirish zarurligi eslatiladi.

Guruhlar so'z yasovchi qo'shimchaga mos o'zak so'z to'ib, o'zakdosh so'zlar qatorini tuzadilar. Qaysi guruh birinchi bo'lib kungaboqarni yasab bo'lishsa, shu guruh g'olib sanaladi va xattaxta yoki magnit doskada ko'rsatiladi. Masalan:



6. “Quvnoq daqiqalar” o’yini.

O'yin maqsadi: o'quvchilarni to'qirlikka, ziyraklikka, mavzularni qiziqarli va esda olib qola olish malakalarini to'g'ri shakllantirishga, vaqt oltinga tengligi, uni to'g'ri taqsimlay olishga o'rgatishdan iborat.

Shuningdek, bu o'yin bo'lim yuzasidan takrorlash, mavzuni mustahkamlash, o'quvchilar bilimini sinovdan o'tkazish maqsadida qo'llaniladi.

O'yin qoidasi.

Soat atrofiga har besh daqiqa oralig'iga tezkor savollar yozilgan. Ishtirokchi o'quvchi toki soat strelkasi 1 daqiqa ichida aylanib chiqqunga qadar nechta savolga to'g'ri javob borishi e'tiborga olinadi.

Eng ko'p savollarga javob bergan o'quvchi "Yosh bilimdon" tojini kiyishga muvaffaq bo'ladi.


O'yinning borishi:

Mustahkmlash darsida eng ko'p ball yig'gan o'quvchilar saylab olinadi. Aytaylik, test sinovlaridan yuqori ball to'rlagan o'quvchilar "ring" ga taklif qilinadi.

Soatning "quvnoq daqiqalar" i bilan barobarma-barobar savollarga har bir o'quvchi individual javob beradi. Har bir o'quvchi javobidan so'ng savollar shkalasi almashtirib boriladi.

O'yin so'ngida eng ko'p ball yig'gan o'quvchi aniqlanib, rag'batlantiriladi.

Masalan,



Undoshlar- chi

(Savollar soat atrofiga joylashtiriladi?)

- 1.O'zbek tilida nechta tovush bor?
- 2.Tovushlar nechta harf bilan ifodalanadi?
- 3.Tovushlar necha turli?
- 4.Unlining o'zi so'z hosil qiladimi?
- 5.Undoshlar-chi?
- 6.So'zda unli tovush ko'p qo'llanadimi yoki undosh tovush?
- 7.So'z nimalardan tuziladi?
- 8.So'z oxiridagi qaysi undosh tovush talaffuzda tushib qoladi?
- 9.Matnga nima qo'yiladi?
- 10.Matn qanday gaplardan tuziladi?
- 11.Matn nutqning qanday shakli?
- 12.Nutq necha xil shaklda ifodalanadi?

O'yinda savollar almashtirib boriladi.

Ko'proq bu o'yinning 3-4-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazish maqsadga muvofiq. Sababi, bu sinf o'quvchilari birmuncha mustaqil fikrga ega va vaqt taqsimotiga to'g'ri amal qiladilar.


7. “Sirli xalqachalar” o'yini.

O'yin maqsadi: o'quvchilarning yangi so'z hosil qila olish ko'nikmalarini oshirish, to'qirlikka, ziyraklikka undash, estetik didlarini to'g'ri tarbiyalash, diqqat va xotirasini kuchaytirishdan iborat.

O'yin qoidasi. So'z o'yini uchun butun sinf jamoasi qatnashadi, so'z tuza olgan o'quvchi qo'l ko'tarib javob beradi. So'z to'g'riligini o'qituvchi xalqachalar aylantirib ko'rsatib boradi.

O'yinning borishi: O'qituvchi "sirli xalqachalar" o'yini qoidasini o'quvchilarga tushuntirib bo'lgach, o'quvchilar so'zlar to'ishga harakat qiladilar. O'qituvchi so'zlarni xalqachalarni aylantirib ko'rsatib boradi.

Masalan,



Bunda birinchi kesma doirasi atrofida so'z o'zaklari, ikkinchi kesma doira atrofida esa so'z yasovchi qo'shimchalar tartiblanadi.

Bu doiralarni so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimchalar bilan ham tartiblash mumkin. Faqat o'yin boshida o'qituvchi o'quvchilarga "So'z yasabmiz", "so'zlarni o'zgartiramiz", "so'z shaklini hosil qilamiz" kabi iboralar orqali kirish gap qo'llashi zarur. Bu so'z navbatida o'quvchini xushyorlikka chaqiradi.

1-daira ichidagi so'zlar (o'zaklar) gul, bog', suv, bilim, meva, odob kabi.

2-daira ichidagi so'z yasovchi qo'shimchalar –zor, -chi, -iston, -li, -siz, -dor, -la, -bon kabi.

Hosil qilinuvchi yangi so'zlar quyidagilar:

Gulzor, gulchi, guliston, gulli, gulsiz, guldor, gulla.

Bog'li, bog'siz, bog'la, bog'bon.

Suvchi, suvli, suvsiz, suvla.

Bilimli, bilimsiz.

Mevazor, mevali, mevasiz.

Odobli, odobsiz.

8. “Gapiruvchi soat” o’yini.

O’yin maqsadi: harflar orqali so’z tuzishga, raqamlarni to’g’ri harflar bilan almashtirishi orqali so’zlar yasashga, ziyorlikka o’rgatish, o’quvchi nutq boyligini oshirish, diqqatini, sezgirligini oshirishdan iborat.

O’yin qoidasi: Soat minutlari orasiga harflar rangdor, yorqin rangda yopishtirilgan. O’qituvchi magnit doskada turli raqamlardan bir nechtasini ko’rsatadi. O’quvchilar turli harflardan so’z tuzishlari kerak. Qaysi o’quvchi so’zni birinchi bo’lib aytsa, ball yig’ib boradi.

O’yinning borishi:


O’qituvchi “gapiruvchi soat” ni qanday gapirtirish zarurligini tushuntiradi.

Magnit doskada tartibsiz raqamlar jonlanadi.

Raqamlarga mos harflarni mos so’z bilan almashtirgan o’quvchi magnit doskada o’z javobini ifodalaydi.

O’yin shu tarzda davom ettiriladi. Ayniqsa, bu o’yinni 1-sinfda “Savod o’rgatish” davrida qo’llash, o’quvchining bilim olishga bo’lgan ishtiyoqini kuchaytiradi, mustaqil fikr yuritishga undaydi.

Masalan, o’yin shunday tashkil etilishi mumkin:



1) 12, 2, 11, 2, 3

v, a, t, a, n

Vatan

2) 2, 3, 4

a, n, o

ona

3) 2, 4, 11

a, o, t

ota

4) 6, 7, 8, 10, 6

i, l, b, m, i

bilim

5) 2, 5, 8, 10, 11, 2

a, k, b, m, t, a

maktab

2-bob Xulosasi.

Hozirgi vaqtda dars samaradorligini oshirishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Darsga o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun ko'rib o'tilganidek bir qator ta'limiy o'yinlar joriy qilingan. Bu o'yinlar o'quvchi zerikishini, diqqatini susayishini, e'tiborsizlikni oldini oladi. Hozirda darslarga o'quvchi erkinligini ta'minlash bosh vazifa sanaladi.

Yuqorida biz ko'rib o'tgan o'yinlar boshlang'ich sinf ona tili darslari uchun mo'ljallangan bo'lib, bu o'yinlar o'quvchi dunyoqarashini boyitishda, ularni darslarga qiziqishini orttirishda, ko'nikma va malakalarni barqarorlashtirishda muhim o'rin tutadi.

Ta'lim sifatini oshirishda bir qator metod va usullar ishlab chiqilgan. Mahoratli pedagog bu metodlardan qayerda, qachon va qaysi darslarda qo'llash o'rnini juda yaxshi biladi. Shu bilan birga ta'limga taqdim etilayotgan turli xil didaktik o'yinlarning ham o'z o'ni o'z vazifasi bor.

Albatta har bir didaktik o'yinning maqsadi o'quvchi bilim sifatini oshirish, dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan. Biz ko'rib o'tgan o'yinlar o'quvchi so'z boyligini oshiradi, og'zaki nutqini rivojlantiradi, avval olgan bilimlarini mustahkamlaydi, bilganlarini esga oladi, ziyrakligini oshiradi, tengdoshlari oldida o'z qobiliyatini namoyon qilishga imkon beradi. Didaktik o'yinlar mavzuni o'quvchilarga oson yetkazib berishimizda ham yordam beradi. O'quvchilar faolligini oshiradi.

Ta'limga yangi texnologiyalarning kirib kelishi darsga bo'lgan talabni yanada oshirdi. Endi biz faqat mavzu bilan cheklanmay, atrofdagi o'zgarishlardan ularni xabardor qilishimiz, ta'limni zamonaviylashtirishimiz, qotib qolgan fikirlardan yiroqlashtirishimiz kerak. Buning uchun o'qituvchi zamonaviy bilimga ega, mahoratli pedagog bo'lishi talab qilinadi. Didaktik o'yinlarni o'z o'rnida qo'llay bilishimiz, bolalarni darsga jalb qilishimizda, o'ylagan maqsadimizga erishishimizda bizga yordam beradi.

3-bob Badiiy matnni shakllantiruvchi vositalarni o'qitish uslubiyoti

3-sinflar uchun mo'jallangan dars ishlanmalaridan namunalar beramiz. Bu dars ishlanma shunisi bilan ahamiyatliki, bunda o'quvchilar faqat o'qish darsini o'rganibgina qolmay so'z boyliklarini ham boyitib o'zlari uchun yangi so'zlarni o'zlashtirib oladilar. Badiiy matnni shakllantiruvchi leksik vositalarni o'qitish metodlari ham o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ishning ushbu bo'limida leksik vositalarning ma'nolarini o'rgatishda dars ishlanmalari tuzish va bu ishlanmalardan dars davomida foydalanish uslubiyoti haqida tahlillar keltiramiz.

Omonim so'zlarni o'qitish uslubiyoti.

Sinf: 4-sinf.

Mavzu: Ot so'z turkumi yuzasidan takrorlashda omonim (shakldosh) so'zlarning ishtiroki.

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsadi

- a) So'z turkumlaridan ot haqida keng qamrovli bilim berish, bilim, ko'nikma malakalarini mustahkamlash. Shakldosh so'zlar to'g'risida ko'nikma hosil qildirish.
- b) O'quvchilarning bilish darajasini bir-biri bilan taqqoslash.

2. Tarbiyaviy maqsad:

- a) Ajdodlar merosiga sodiq bo'lib, vatanimizga munosib farzand bo'lish.
- b) Odob-axloq qoidalariga rioya etish, o'zgalar fikrini aniqlash, hurmat qilishga o'rgatish
- d) O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad.

Bilim ko'nikma malakasini rivojlantirish, tez fikrlay olish, hozirjavobligini oshirish.

Darsing turi: Aralash, bilimlarni mustahkamlovchi

Dars usuli: Aqliy hujum, klaster, beshinchisi ortiqcha metodi, nima qiladi? metodi, baxtli tasodif metodi.

Darsning jihozi: Darslik, kompyuter, monitor, tarqatma kartochkalar,

Dars shiori:” O‘rgan –o‘rgat shiori

Boshlang’ichdir poydevori.

Biz buyuk kelajakni ozod va farovon hayotni qurish maqsadida matonat va qattiylik bilan mexnat qilamiz. (I.Karimov) Darsning texnologik xaritasi

Biz buyuk kelajakni ozod va farovon hayotni qurish maqsadida matonat va qattiylik bilan mexnat qilamiz. (I.Karimov)

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism:

O‘quvchilar darsga hozirligi tekshiriladi. “Tartib posboni “va” orasta qiz “ hisobot beradi. Qish fasli haqida ma’lumot beriladi

Ma’naviyat daqiqasi o‘tkaziladi.





1. 2014- yil qanday yil deb nomlandi?
2. "Sog'lom bola" deganda nimani tushunasiz?
3. Sog'lom bo'lish uchun nimalar qilmog'imiz kerak.?

2. O'tilgan mavzuni mustaxkamlash va uy vazifani tekshirish.



Baxtli tasodif metodidan foydalanib o'quvchilarga 6 ta konvert ko'rsatiladi, 1 ta konvert ichida **5* omad** yozilgan bo'ladi, o'quvchilar konvertdagi savollarga birin ketin javob berishadi va kimga baxtli tasodif tushsa sinf chapak chaladi, **5*** qoyiladi.



Baxtli tasodif

Savollar.

1-savol ; Tilimizda nechta kelishik bor?

2-savol: . Bosh kelishik qo‘shimchasini ayting?

3-savol: Bosh bo‘lak gapda qanday vazifasida keladi?

4-savol: Ot yasovchi qo‘shimchalarni ayting?

5-savol: O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini ayting

Yangi mavzu bayoni:

O‘qituvchi;

Juft savolim bor sizga, Ham o‘g‘ilga ham qizga.



Nima ekdi ? –Gulnoza?

O‘quvchi; Gul ekdi Gulnoza.

O‘qituvchi Gulga nima quyayapti?


O‘quvchi:- Suv quyayapti.

O'qituvchi; Berilgan rasmlar asosida og'zaki hikoya tuzasiz va otlarni aniqlaysiz.



Qoida; Narsa va shaxsning nomini bildirib kim? nima? Kimlar? Nimalar?

so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar ot deyiladi



263-mashq Birikmalarni o‘qing.

Ko‘m-ko‘k o‘t ariqdan o‘t

Minishli ot koptokni ot

Bir xil o‘zakdagi so‘zlarning ma’nosini ayting.

Tilda **ot**, **o‘t** so‘zlari nechta? ular qaysi tomon bilan bir-biriga o‘xshaydi? Nimasi bilan farq qiladi?

264-mashq. Mashq sharti o‘qib eshittiriladi. Ot yasovchi qo‘shimchali otlarni ko‘chiradilar va o‘zak hamda qo‘shimchalarni belgilaydilar.

Suvchilar, traktorchilar, paxtakorlar, oshpaz.

265-mashq Berilgan so‘zlardan ot yasovchi qo‘shimchalar yordamida otlar hosil qiladilar.

Sinf	sinf-dosh
Olma	olmaxon

1	Suv	chi	lar
2	Traktor	chi	lar
3	Paxta	kor	lar
4	Osh	paz	
Bino		binokor	
Suva		suvoqchi	
Tarbiya		Tarbiyachi	

Yangi mavzuni mustahkamlash

“Kungaboqar” o‘yini.

O‘yin maqsadi.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar asosida yangi so‘z yasay olish ko‘nikmalarini oshirishga, bilimlarini charxlashga, topqirlik, ziyraklikka undash. Estetik ruhda tarbiyalash, ekologik madaniyatni yuksaltirish.


O'yin qoidasi.

Kungaboqar gulbarglarini mos so'zlar bilan to'ldirish, qaysi guruh avval topshiriqni bajarsa, g'olib sanalishi eslatiladi.

O'yinning borishi.

O'quvchilar 5 yoki 6 guruhga ajratiladi. Oq qog'ozdagi kungaboqar yaproqchalariga mos o'zak so'zlarni topib yozish va uni gulbarglariga yopishtirish zarurligi eslatiladi.

Guruhlar so'z yasovchi qo'shimchaga mos o'zak so'z to'ib, o'zakdosh so'zlar qatorini tuzadilar. Qaysi guruh birinchi bo'lib kungaboqarni yasab bo'lishsa, shu guruh g'olib sanaladi va xattaxta yoki magnit doskada ko'rsatiladi. Masalan:



O'quvchilar bilan savol javob o'tkaziladi

Uyga topshiriq

Kundalikni endi ochaylik

Uyga vazifalarni yozaylik

Ona-tilidan olgan bilimni,

Unutmasdan esta saqlaylik.

266-mashq sharti o'quvchilarga tushuntiriladi. She'rni ifodali o'qiydilar va ko'chiradilar. Ot yasovchi qo'shimchalarni tegishlicha belgilaydilar.

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi



MAVZU: “Belgi bildiruvchi so’zlar”

2-sinfda” **Belgi bildiruvchi so’zlar”** mavzusini sinonim (ma’nodosh), antonim (qarama-qarshi ma’noli), so’zlardan foydalanib mustahkamlash.

2-sinf ona tili darsligida Belgi bildiruvchi so’zlar mavzusiga jami 8 soat vaqt ajratilgan bo’lib, bu soatlardan 1 soati mustahkamlashga ajratilgan. Quyida 1 soatlik mustahkamlash darsini o’tish uslubidan namuna sifatida ko’rsatamiz.

Maqsad:

- a) talimiy- o’quvchilar avval olgan bilimlarini mustahkamlash, ingliz tilidagi so’z boyliklarini oshirish;
- b) tarbiyaviy-bolalarni o’zaro do’stlik bir-birlarini hurmat qilishga o’rgatish, atrof-muhitga bo’lgan munosabatlarini yaxshilash,
- c) rivojlantiruvchi- o’quvchilarni erkin va mantiqiy fikirlashlarini, og’zaki nutuqlarini rivojlantirish.

Dars turi: takrorlash,umumlashtirish, mustahkamlash

Dars uslubi: o’yin, musobaqa, guruhlarda ishlash

Dars jihozi: turli hildagi tarqatma rasmlar, tarqatma materiallar, slaydlar, tarqatma kartochkalar.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism: (dars o’qituvchining sheriyl salomlashishi bilan boshlanadi)

O’qituvchi: Salom aziz bolalarim,

Aqli raso donolarim,

Hammangiz sog’ omonmisiz?

Dars tinglashga tayyormisiz?

O’quvchilar : Hammamiz sog’- omonmiz,

Dars tinglashga tayyormiz.

O’qituvchi: Hamma gapdan xabarchi

Sinifda kim navbatchi.

Navbatchi axboroti tinglanadi, sana davomat aniqlab olinadi.

O'qituvchi: Hozir qaysi fasl?

O'quvchilar: Bahor. (bahor manzarasi tasviri taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi, bahor so'zining ingliz tilidagi yozuvi slayd tarzida ko'rsatiladi)

SPRING- bahor

(bu so'z o'qituvchi yordamida jo'r bo'lib, talaffuz qilinadi)

O'qituvchi: Bahorda ob-havo qanday bo'ladi?

O'quvchilar: Bahorda ob-havo isiy boshlaydi, dam yomg'ir yog'adi dam quyosh chiqadi....

(o'qituvchi quyosh so'zini ingliz tilida yozilgan slayidini o'quvchilarga ko'rsatadi)

SUN- quyosh

(o'qituvchi o'quvchilarga bu so'zni jo'r bo'lib talaffuz qildiradi)

O'qituvchi: Barakalla bolajonlar. Endi bugun darsimizni boshlashdan oldin sizlarni guruhlariga bo'lib nomlab olamiz. (o'quvchilar 5 guruhga bo'linib doira bo'lib o'tiradilar, har bir guruh nomi stoli ustiga qo'yib qo'yiladi.)

1-guruh: Bilimdonlar

2-guruh: Topqirlar

3-guruh: Zukkolar

4-guruh: Chaqqonlar

5-guruh: Donolar

(O'tilgan mavzuni esga olinadi, bugungi dars o'tilgan mavzu yuzasidan mustahkamlash ekanligi aytib o'tiladi)

1-topshiriq.

O'qituvchi: bolajonlar hozir har bir guruhdan bir kishidan o'quvchi chiqib mana bu savatchadan xohlagan mevangizni tanlaysiz va meva ortidagi savollarga guruhingiz bilan kelishgan holda javob berasizlar tayyorlanish uchun sizlarga 3 daqiqa vaqt belgilaymiz. (mevalar tanlanadi o'quvchilarga vaqt beriladi savollar quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Belgi bildiruvchi so'zlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
2. Belgi bildiruvchi so'zlarga kamida 10 ta misollar ayting va ularga ma'nodosh so'zlar toping.
3. Bobomiz Amir Temur qanday shaxs bo'lgan? Sifatlarini sanang.
4. Berilgan belgi bildiruvchi so'zlarga qarama-qarshi ma'nolarini toping.

Katta-

Chiroyli-

Issiq-

Achchiq-

Baland-

Yaxshi-

Aqilli-

Oq-

Kuchli-

5. Quyidagi so'zlarni o'z o'rniga joylashtiring: ochildi, qizil, sariq, bog'da pushti, gullar; burkandi oppoq daraxtlar rangga.

(o'quvchilar guruh bo'lib tayorgarlik ko'rishadi)

Belgilangan vaqt tugagach guruhlardan 1 kishidan nomzod javoblarni izohlab beradi.

(To'g'ri javob bergan guruhlar rag'batlantiriladi)

O'qituvchi: Bolajonlar birinchi topshiriqdan yaxshi o'tdingiz. Sizlarni tabriklayman! (Ba'zi belgi bildiruvchi so'zlarning ingliz tilidagi nomi bilan o'quvchilar tanishtiriladi, ingliz tilidagi so'zlar yozilgan slaydlar ko'rsatiladi)

BIG - katta

LITTLE - kichkina

STRONG - kuchli

RED - qizil

BEAUTIFUL - chiroyli

Bu so'zlar o'qituvchi yordamida jo'r bo'lib qayta-qayta talaffuz qilinadi.

2-topshiriq.

O'qituvchi: Endi biz sizlar bilan “kim topqir “ o'yinini o'ynaymiz. Bu o'yinda 3 nafar o'quvchi doska oldiga chiqib o'quvchilarga qarab turadi. O'qituvchi ularning orqasiga o'tib o'tirgan o'quvchilarga rasm ko'rsatadi o'quvchilar bu rasimga ta'rif berib turli xil belgilarini aytadilar.

Doskada turgan o'quvchilar bu belgilarni eshitib nimaning rasmi ekanligini topishi kerak bo'ladi.

Masalan: Tulki- ayyor, yovvoyi hayvon, sariq rangli...

Quyong-...

Ayiq-...

Topqir o'quvchilar rag'batlantiriladi.

3-topshiriq.

O'qituvchi: Bolajonlar navbatdagi topshiriqni “kim chaqqon” deb nomlaymiz. Hozir meni qo'limda vagonchalar bor bu vagonchalarni o'z o'rniga qo'yishimiz kerak bunda sizlar menga yordam berasizlar.

Har bir vagonchada 4 tadan so'zlar yozilgan bu so'zlarga ma'nodosh (yaqin ma'noli) so'zlar topib yozishlari kerak:

Masalan: Chiroyli,

Katta, ...

Shirin, ...

Odobli, ...

Topshiriqni tez va to'g'ri bajargan guruhlar rag'batlantiriladi.

Darsni mustahkamlash:

Bu bosqichda o'quvchilar “so'zlar zanjiri” ni hosil qiladilar. Og'zaki tarzda belgi bildiruvchi so'zlar o'quvchilar tomonidan ketma - ket aytiladi.

Baholash:

O'qituvchi: bolajonlar bugungi mustahkamlash darsi sizlarga yoqdimi? (o'quvchilar fikri so'raladi) Bugun darsimizda qaysi guruhlar faol qatnashdilar ? (2-3 o'quvchi fikri so'raladi) o'quvchilar fikri hisobga olingan holda faol qatnashgan guruh aniqlanib o'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi, barcha guruhlardan faol qatnashgan o'quvchilar ham baholanadi.

Uyga vazifa: “Bahor tabiati” mavzusida matn tuzish.

Fan: Ona tili

Sinf: 1-sinf **tovushlar va harflar mavzusini o'rgatishda paronimlardan foydalanish.**

Mavzu: Tovush va harflar

Dars maqsadi:

Ta'limiy maqsad: tovushlar va so'z ma'nolarini farqlashi, to'g'ri talaffuzi, belgilari, grafik jihatdan to'g'ri shakllantirish haqidagi bilimlarini eslatish orqali mustahkamlash

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni oila va uning a'zolariga hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning so'z boyligini yangi so'zlar bilan boyitish va nutqini o'stirish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi dars


Dars metodi: darslik bilan ishlash, o'zgargan harfni top o'yini, suhbat

Dars jihozi: mavzuga mos rangli rasmlar, tovushlar uchun katakcha, kesma harflar

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan salomlashiladi, davomad aniqlanadi, Fasl haqida suhbat o'tkaziladi.



Qishda tabianda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Rasmda nimalar tasvirlangan?

2014 yilning nomlanishi haqida savol-javob o'tkaziladi.



2. O‘tilgan mavzuni so‘rash.

O‘quvchilardan “Ona tili” she’ri so‘raladi. She’r yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi.

3. yangi mavzu bayoni:

Tovushlar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

Chizmani kuzating, bu so‘zda nechta tovush bor ? ...

Bu so‘z oila a‘zolarini bildiruvchi so‘z. qaysi so‘z Qaysi so‘z ekanini topadi? (Ona). Ona so‘zida nechta tovush bor ? Shu so‘zdagi ikkinchi tovushni boshqasi bilan almashtiring. (Ota)

Ona va ota so‘zlarining ma‘nosini qaysi tovushlar farqlab berayapti ? (n va t tovushlari)

Aka so‘zida nechta tovush bor ? (3 ta) Birinchi so‘zni o‘zgartirib yangi so‘z hosil qiling. (uka)

So‘zlarning ma‘nosi nega o‘zgardi ? (Tovushlar o‘zgargani uchun). Demak tovushlar so‘zning nimasini o‘zgartiradi? (Ma‘nosini)

Shu so‘zlarning tuzilishi chizmada tasvirlanadi. (...) To‘rtta so‘zning tasviri bir xil. (Chunki bitta tovush uchun bitta katakcha olinadi). Lekin tovushlar har xil.

So‘zda nechta tovush bo‘ladi? (Bitta: u, ikkita: un, uchta: ota, va undan ko‘p) Oila haqida savol-javob o‘tkaziladi.

O‘quvchilar javoblari umumlashtiriladi: So‘zlar tovushlardan tuziladi. So‘zda bitta va undan ko‘p tovushlar bo‘ladi. Tovushlarni aytamiz va eshitamiz. Har bir tovush bitta katakcha bilan belgilanadi.

O‘quvchilar fikrining xulosasi sifatida darslikdagi qoida o‘qitiladi. (Tovushlarni aytamiz va eshitamiz. O‘zbek tilida 30 ta tovush bor.)

- Darslik bilan ishlash. 2-mashq sharti o‘qitiladi. O‘quvchilar rasmda tasvirlangan narsa nomlarini yozadilar. Ulardagi harflar yuzasidan suhbat o‘tkaziladi.

Tovushlar yozuvda nima bilan ifodalanadi? Harflarni nima qilamiz? Yozgan so‘zlaringizdagi harf va tovushlar sonini aniqlang.

- “So‘z tuz va o‘qi!” o‘yini: O‘quvchilarga o‘yin sharti tushuntiriladi:
O‘qituvchi so‘z aytadi va shaklini xat taxtaga chizadilar. O‘quvchilar tasvirga qarab yangi so‘z hosil qiladilar.
- O‘yinga xulosa yasaladi: So‘zda birorta tovush tushib qolsa yoki boshqa tovushga o‘zgarsa ham so‘z ma’nosi o‘zgaradi. Shuning uchun so‘zlarni yozganda tovushni bildiruvchi birorta harfni tushirib qoldirmay yoki boshqasi bilan almashtirmay yozish lozim.
- 3-mashq shartiga ko‘ra yozdiriladi. Anhor-anor, bahor-baho, hunar-unar, dona-ona, don-kon, shox-shoh, o‘yna-o‘yla, tom-to‘m, yod-yot, paqir-baqir, ...

4. Yangi mavzuni mustahkamlash: savol javob o‘tkaziladi.

Tovushlarni nima qilamiz? (Tovushlarni aytamiz va eshitamiz.) O‘zbek tilida nechta tovush bor? (O‘zbek tilida 30 ta tovush bor.)

Rangli rasmlar ko‘rsatiladi va o‘quvchilar nomlarini aytadilar. Tovush va harflar sonini aytishadi.



--	--	--



--	--	--	--



--	--	--	--	--	--	--	--






--	--	--	--	--	--	--



--	--	--	--	--

5. Uyga vazifa: 4-mashqning sharti tushuntiriladi.

6. O'quvchilarni baholash: Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.



Mavzu: Gulzorda.**Darsning maqsadi:**

- a) o'quvchilarni o'lkamiz tabiati bilan tanishtirish, yoz fasli haqidagi bilimlarini boyitish.
- b) ona tabiatga mehr – muhabbat ruhida tarbiyalash, Vatanparvarlik haqidagi tasavvurlarini kengayirish.
- v) o'quvchilarni tez va ravon ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish.

Dars turi : yangi bilim beruvchi.

Dars usuli : savol – javob, suhbat, ko'rgazmalilik, klaster.

Dars jihozi : mavzuga mos rasm, tarqatma materiallar, harakatli ko'rgazmalar, asar mazmuniga moslangan ko'rgazmalar.

Darsning borishi.***Tashkiliy qism.***

Navbatchi axboroti.

Assalomu alaykum hurmatli ustoz.

Va alaykum assalom, aziz bolajonlar!

- bugungi darsimizda kim navbatchi?
- Navbatchi o'quvchi turib, sana, kun, oy, fasl, ob – havo va davomat haqida ma'lumot beradi.
- Biz qaysi yurtda tug'ilganmiz?
- Vatan deganda nimani tushunasiz?
- O'zbekiston prezidenti kim?
- Bahor qaysi oylardan iborat?
- Bahordan keyin qaysi fasl?

O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

- a) uyga vazifani nazorat qilish.
- b) mavzu yuzasidan savol – javob o'tkazish.
 - 1) Biz o'tgan darsimizda qaysi mavzu bilan tanishdik?
 - 2) Siz bu hikoyadan qanday xulosa oldingiz?

3) Hikoyadagi ijobiy qahramonlarni ayting?

4) Olgan xulosangizni so'zlab bering?

Yangi mavzu bayoni.

- Yangi mavzuni e'lon qilaman.

Gulzorda.

Ko'm – ko'k bahmal tog'lardan oshib,

O'quvchilar o'ynab - kulingiz!

O'lkamizda go'zal yoz chog'

Sizni kutar lola – gulingiz.

Bel baravar barra o'tlarni

Kurt – kurt yeydi qo'y – qo'zichoqlar.

-Biz ham shodmiz siz kabi, - deya

Qirda kishnar toy – qulunchoqlar.

Bir zum o'tmay moviy osmonda,

Turnalar keng yozar arg'umchoq.

Qaytib kelgan laylak, qaldirg'och,

Inlariga qo'nib vaqti chog'.

SHunday ko'rkam faslni ko'rib,

Kimning zavqi toshmaydi deysiz?..

Qanday fayzli tog', dala bizda

Bolajonlar, o'ynab – kulingiz.

Shermi o'qituvchi ifodali o'qib beradi, so'ng o'quvchilarga ikki qatordan o'qitadi.

Sherdan olgan xulosalari bilan o'rtoqlashadi. Yoz faslida qanday ish qilishlari

haqida o'quvchilar fikrini so'raydi. Ularga o'z tavsiyalarini beradi. Yangi mavzu

yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi. Bolajolar, ushbu sherda yoz va o't so'zlarini

to'ing? Ular qanday so'roqqa javob bo'layotgaligini aniqlang.

Yoz (nima? ot) – yoz (nima qil? fe'l).

O't (nima? ot.masalan, o't- o'lan) – o't (nima qil? fe'l, masalan, ariqdan o't)

SHundan keyin o'quvchilarga sherda berilgan qo'y – qo'zichoq, toy – qulunchoq so'zlaridagi qo'y va toy so'zlarini ham huddi yoz va o't kabi qanday ma'nolari borligini aniqlash taklif etiladi?

Qo'y (nima? ot. Masalan, qo'y – qo'zichoq) – qo'y (nima qildi? Fe'l. masalan – choynakni xontaxtaga qo'ydi.)

Toy (nima? ot. Masalan, toy-qulunchoqlar o'tlaydi.) – toy (nima qildi? Fe'l masalan, u oyog'i toydi)

Yangi mavzuni mustahkamlash.

a) mavzu yuzasidan tezkor savol – javob o'tkazish.

1) she'rda nima haqida so'z ketyapti.

2) siz yoz faslini qanday o'tkazmoqchisiz?

3) yoz faslida qanday mevalar pishadi.

4) yoz faslida o'lkamiz tabiatida qanday o'zgarishlar yuz beradi.

Dam olish daqiqasi.

Tilla qo'ng'iz

Deydi g'iz – g'iz.

Qo'yvor meni

Ishim tig'iz.

Baholash. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantirib, baholar e'lon qilinadi. Qo'yilgan baholar izohlab beriladi.

Uyga vazifa: Sherni yod olish, sher asosida yoz faslini chizish.

Yakunlash. Darsni xulosalab, yakunlanadi.

2.2 Sinonim so'ziarni o'qitish uslubiyoti

Mavzu: Oltin fasl

Dars maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: "Oltin fasl" maqolasini o'rganish.

Tarbiyaviy maqsad: "Oltin fasl" hikoyasini o'qish orqali o'quvchilarga tabiatni e'zozlashga mehr uyg'otish, tabiat bergan in'omlarni isrof qilmaslik, tejamkorlikka undash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning o'qish malakalarini va yil fasllari, ularning belgilari haqidagi fikrlarini rivojlantirish og'zaki nutqini o'stirish.

Dars metodi: ko'rgazmali, tushuntirish, mustaqil ish, suhbat.

Darsning borishi:

Darsni tashkil qilish: Bolalar bilan salomlashib, Davlat Madhiyasi aytiladi. Davomat tekshiriladi.

O'tgan mavzuni so'raladi.

Uyga vazifa "Ona shahrim" mavzusida insho yozish edi. Insholar ko'rib chiqilib, o'quvchilarga so'zlataman.

Interfaol metoddan foydalanish:

"Olma terish" o'yini orqali savollarga javob beradilar.

Bunda sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadi:

Chaqqonlar.

Epchillar

Bilag'onlar

Bunda o'quvchilar doskada osilgan olma daraxtidan olmalar teradilar. Har guruhdan 1 o'quvchi chiqib 1 tadan olma oladi va olmaning orqa tomonidagi savollarga javob beradi. Har guruhda 8 ta o'quvchi bo'lib, har qaysiga 1 tadan savol beriladi va qaysi guruhda qancha ballar to'plaganiga qarab, g'olib aniqlanadi. Ballarni qo'yishda doirachalardan foydalanamiz: yashil doiracha - 5 ball

Sariq doiracha - 4 ball

Qizil doiracha - 3 ball

3. Yangi mavzuga kirish:

Rasm ustida ishlash. Rasmni bolalar kuzatgach, o`qituvchi rasmda nimalar tasvirlanganini so`raydi.

Rasmda nimalarni ko`ryapsiz?

Unda qaysi fasl tasvirlangan?

Kuz faslidan tashqari yana nechta fasl bor?

Kuz faslga qaysi oylar kiradi?

4. Yangi mavzu:

OLTIN FASL.

Mavzuni o`qituvchi o`qib beradi va mazmunini gapirib beradi. O`quvchilarga 2 ta gapdan o`qitish.

5. Lug`at ustida ishlash:

Ser – bisot, ko`p

Qoya – tik tog`

Manzara - ko`zga tashlanib turadigan joy

Iste`mol - yeyish, ichish

Issiqsevar - issiqni yaxshi ko`radigan qushlar.

6. Qayta o`qish va so`zlashga o`rgatish.

Sinf o`quvchilari mavzuni navbati bilan ifodali o`qiydilar va mazmunini gapiradilar.

7. Savol – javob o`tkazish:

1. Kuz faslida tabiatda qanday o`zgarishlar ro`y beradi?

2. Kuzda qaysi qushlar boshqa o`lkalarga uchib ketadi?

3. Kuzda jonivorlar hayotida ro`y beradigan o`zgarishlar to`g`risida nimalarni bilasiz?

4. “Kuz” fasli haqida qanday she`r va maqollarni bilasiz?

5. Kuz fasliga qaysi oylar kiradi?

8. “Oltin fasl” mavzusi savol va topshiriqlar orqali mustahkamlanadi:



1) *Aqliy hujum asosida mustahkamlash.*



- Kuz fasliga oltin fasl deb nomlanishining sababini ayting?

- Kuzdagi ob-havoni ayting?

- Kuzdagi kishilar mehnati haqida gapiring?

2) “Ring – bo’rd” o’yinidan foydalanish.







Boshqotirma

Paxta qaysi faslda terib olinadi?

Kuzda issiq o`lkalarga uchib ketadigan qushning nomi?



Izma – iz” o`yini



Ilmli ming yashar

Tez aytish

Ko`k karam ko`pmi

Po`k karam ko`pmi

6) Maqolni davom qiling

Erinchoqlik boshqa

a) balo keltirar b) yaxshi bo`ladi. D) zahmat chekasan

9. O`quvchilardan mevallar haqida to`ishmoqlar so`raladi.

1) pichoq kessa, qon chiqar,

po`choq ketsa, don chiqar

2) Anjir sifatli, qo`shaloq otli,

Shaftoli zotli, mazasi totli

(Anjir sharbari)

Topishmoqlar tahlil qilinib, javoblarini topadilar.

10. O`quvchilarni rag`batlantirish.

11. Uyga vazifa: “Oltin fasl” maqolasini o`qib, so`zlab berish. Kuz haqida maqol va topishmoq, she`rlar o`rganish

Darsni yakunlash.

Antonim so`zlarni o`qitish uslubiyoti

Mavzu : Alpomish. (parcha).

Darsning maqsadi :

Ta`limiy : o`quvchilarni Alpomish dostoni bilan tanishtirish, o`quvchilarga uning ahamiyatini o`rgatish.

Tarbiyaviy : vatanparvarlik, sog`lom avlod hamda badiiy adabiyotga qiziqish va hurmat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi : o`quvchilarni halq dostonlari va ularning amaliy ahamiyati haqidagi bilimlarini rivojlantirish.

Dars turi : yangi bilim beruvchi.

Dars usuli : savol – javob, suhbat, ko`rgazmalilik, klaster.

Dars jihozi : mavzuga mos rasm, tarqatma materiallar, harakatli ko`rgazmalar, asar mazmuniga moslangan ko`rgazmalar.

Darsning borishi.

Tashkiliy qism.

Navbatchi ahboroti

O`qituvchi :

Bizning vatanimiz qayer?

O'quvchi :

O'zbekiston.

- O'zbekiston poytaxti qayer?

- Toshkent shahri.

- Vatan deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilar:

Vatan bu – tug'ilib o'sgan tuproq.

Vatan bu – tinch va osuda hayot.

O'qituvchi: - Bolajonlarim, men Vatan ravnaqi uchun nima qildim?
So'rog'iga qanday javob beramiz?

O'quvchi: - Biz, yosh avlod sog'lom, barkamol, kuchli va pahlavon bo'lib, voyaga yetishib, a'lo baholarimiz bilan Vatan oldida "labbay" deb javob beramiz.

- Men shifokor bo'lib, elimning sog'lig'i uchun qayg'uraman.

- Nen mohir quruvchi bo'lib, katta – katta inshootlar quraman.

- Men o'qituvchi bo'laman, barcha murg'ak qalblarga ilm sirlarini o'rgataman.

O'qituvchi: - Barakalla, aziz bolajonlarim! Siz Vatan ravnaqiga o'z hissangizni qo'shadigan va kelajakda har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishingiz uchun ko'proq o'qishingiz kerak bo'ladi.

Endi, o'quvchilar o'qish darsidan DTSga ko'ra qanday bilim, ko'nikma va malakalarni bilishimiz zarurligini aniqlab olsak.

1. So'z va iboralarni to'g'ri, obrazli o'qiy olishimiz.

2. Gap ohangiga rioya qilgan holda ravon o'qishimiz.

3. Bir daqiqada 80-90 so'zni o'qiy olishimiz.

4. Gapdagi tinish belgilarni talaffuzda aks ettirishimiz.

5. Sanash va ajratish ohanglariga qat'iy rioya qilishimiz lozim, shundaymi?

6. Ilmiy atamalarni to'g'ri talaffuz qilishingiz, ikkita sherni yoddan bilishingiz, ertak, maqol, tez aytish, to'ishmoq, qo'shiq, alla, hikoya, qissa kabi adabiy atamalarga ta'rif bera olishingiz shart.

Bolalar bugungi darsimiz qiziqarli o'tishi uchun bugungi darsimizni rollarga bo'lib o'tamiz.

- Yangi mavzuni e'lon qilaman. Mavzuni avval o'zim ifodali o'qib beraman. Mazmunini so'zlab beraman. So'ng o'quvchilarga rollarga bo'lib o'qitaman.
- Parta oralatib, har bir o'quvchiga ikkita uchta gapdan o'qitaman. Mavzuni yanada yahshiroq tushuninishlari uchun lug'at ustida ishlaymiz.

Ho'sh bolajonlar matnda bir – biriga zid qanday so'zlar qo'llangan?

O'quvchilar berilgan matnni o'qib ish daftarlariga hamda doskaga bir – biriga zid bo'lgan so'zlarni yozadilar.

Vaqt – bevaqt

Mehmon – mezbbon

Bahil – sahiy

Shundan keyin o'quvchilar ikki guruhga bo'linadilar. 1 – guruhga bahil so'ziga ma'nodosh so'zlarni yozish topshiriladi. 2 – guruhga sahiy so'ziga ma'nodosh bo'lgan so'zlar yozilishi aytiladi.

1 – guruh bahil so'ziga ma'nodosh qilib quyidagi so'zlarni yozishlari mumkin. Bahil – hasis - qizg'anchiq – ochko'z – nokas.

2 – guruh sahiy so'ziga quyidagi so'zlarni ishlatadilar. Sahiy – qo'li ochiq – sahovatli.

Shundan keyin darslik kitob yopiladi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi. Yangi mavzu yuzasidan savol – javob o'tkaziladi.

- 1) Doston deb nimaga aytiladi?
- 2) Alpomish dostoni qanday dostonlar sirasiga kiradi?
- 3) Alpomish dostoni qahramonlarini ayting.
- 4) Alpomishdagi qaysi hislatlar sizga ma'qul?
- 5) Alpomish kimning farzandi?

SHunday tezkor savollar bilan o'tilgan mavzu mustahkamlanadi. Demak, bolalar yangi mavzuni ham mustahkamlab oldik.

Uyga vazifa : Alpomish dostonini o'qib, so'zlashga tayyor bo'lib kelish, lug'at so'zlarini yodlash.

Tarixiy va arxaik so'zlarni o'qitish uslubiyoti.

Mavzu: Yusuf Hos Hojib. "Bahor tarifida".

Darsning maqsadlari:

a) Yu.H.Hojibning bahor ta'rifini o'qish orqali o'quvchilarda bahor fasli haqida to'liqlanib so'zlash malakasini rivojlantirish;

b) o'qish darsini ona tili vatabiat darslariga bog'lash, erta bahorda bo'ladigan o'zgarishlar bilan tanishtirish va bu orqali o'quvchilarni tabiatni sevisga, uni avaylab – asrashga o'rgatish;

v)o'quvchilarning ifodali va ongli o'qish malakalarini, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars usuli: tushuntirish, klaster, interfaol.

Dars jihozi: harakatli ko'rgazmalar, kom'yuter, rangli rasmlar, yangi uzilgan gullar.

Darsning borishi

- Navbatchi axboroti.

O'qituvchi:

Bizning Vatanimiz qayer?

O'quvchi:

O'zbekiston.

O'zbekiston poytaxti qayer?

Toshkent shaxri.

Vatan deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilar:

-Vatan bu tug'ilib o'sgan joy.

O'qituvchi: - Bolajonlarim, men vatan ravnaqi uchun nima qildim? So'rog'iga qanday javob beramiz?

O'quvchi: - Biz, yosh avlod sog'lom, barkamol, kuchli va polvon yigit vaqizlar bo'lib, voyaga yetib a'lo baholarimiz bilan Vatan oldida "labbay" deb javob beramiz.

Men shifokor bo'lib, elimning sog'ligi uchun qayg'uraman.

- Men mohir quruvchi bo'lib, katta – katta inshootlar quraman.
- Men o'qituvchi bo'laman, barcha murg'ak qalblarga ilm sirlarini o'rgataman.

O'qituvchi: -Barakalla, aziz bolajonlarim! Siz Vatan ravnaqiga o'z hissangizni qo'shadigan va kelajakda har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishingiz uchun o'qishingiz kerak bo'ladi.

Endi, o'quvchilar, o'qish darsidan DTSGa ko'ra qanday bilim, ko'nikma va malakalarni bilishimiz zarurligini aniqlab olsak.

1. So'z va iboralarni to'g'ri, o'qiy olishimiz;
2. Gap ohangiga rioya qilgan holda ravon o'qishimiz;
3. Bir daqiqada 80 – 90 so'zni o'qiy olishimiz;
4. Gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirishimiz;
5. Sanash va ajratish ohanglariga qat'iy rioya qilishimiz lozim, shundaymi?

Ilmiy atamalarni to'g'ri talaffuz qilishingiz, ikkita she'rni yoddan bilishingiz, ertak, maqol, tez aytilish, to'lishmoq, qo'shiq, alla, hikoya, qissa kabi adabiy atamalarga ta'rif bera olishingiz shart.

Ana shu talab asosida bilimingizni baholab, egallagan bilim, ko'nikma, malakalaringizni 5 ball, 4 ball, 3 ball reyting asosida belgilab boraman.

Bolalar bugungi darsimiz qiziqarli va mazmunli o'tishi uchun guruhlariga bo'linib olamiz.

1-guruh – “Binafsha” :

- Men, 1-guruh sardori – Qo'chqorova Umidaman. Binafsha bahorning darakchi guli bo'lib, u adir va ariqlar bo'ladi.

Binafshajon, binafsha

Kulishlaring chiroyli.

Bog'imizda ochilib,

Turishlarin chiroyli.

2-guruh – “Boychechak” :

- Men, guruh sardori Hayrullaeva Mavludaman. Boychechak – bahorning darakchi gulidir. U tog'larda ochiladi.

Boychechagim boylandi.

Qozon to'la ayrodir.

Ayroningdan bermasang,

Qozon – tovog'ing vayrondir.

Yumshoq yerdan yumaloq chiqqan boychechak.

3-guruh – “Lola” :

Men, 3 – guruh sardori Hamroev Jahongir bo'laman. Lola bahorning darakchi guli, u qizil alvon rangda bo'ladi.

Bahor keldi elimizga,

Ko'm – ko'k bo'ldi bo'g' dala.

Sevinch to'lib dilimizga

Terib keldik biz lola.

O'qituvchi : - mana, sizlar bilan guruh sardorlari va guruh nomlari bilan ham tanishib oldik. Guruhlarning nomlaridan ko'rinib turibdiki, bugungi darsimiz ham bahor fasliga bag'ishlangan.

Endi sizlarning darsdagi faolligingizni oshirish uchun tezkor savollar bilan murojaat qilaman.

1-guruhga :

1. O'zbekiston qachon mustaqillikka erishdi?
2. Bahorda birinchi gullaydigan daraxt?
3. Bahorda qanday bayramlar bor?

2-guruhga :

1. Tinchlik qushi nomini ayting.
2. Bahorni darakchi gullari.
3. Bahor fasli necha oy.

3-guruhga :

1. Qaysi daraxt gullamay meva tuyadi?
2. “Bolalar uyida” hikoyasi qaysi asardan olingan?
3. Bahorda uchib keladigan qushlar nomini ayting.

O'quvchilar javoblari baholanadi.

Bolalar biz siz bilan birinchi sinfda ham bahor fasli haqida ko'p tushunchalarga ega bo'lganmiz.

Demak siz bahor fasli haqida bimalol gapirib bera olasiz. Hozirgi darsimizda Yusuf Hos Hojib bobomizning "Bahor tarifida" mavzuyi orqali bu bilimlarimizni yanada boyitib kengaytirib olamiz.

Keling, mavzuni boshlashdan oldin Yusuf Hos Hojib bobomizning hayoti va ijodi bilan tanishib olamiz.

Kompyuterda bobomiz rasmi ko'rsatilib u haqida ma'lumotlar beriladi. Demak, Yusuf Hos Hojib bobomizni "Qutadg'u bilig" asari orqali bizni bilim olishga, hunar egallashga da'vat etganlar.

Uning "Bahor ta'rifida" mavzusini so'zlab berishdan oldin, mavzuda uchraydigan ayrim so'zlar lug'atiga o'quvchilar diqqati tortilsa, uning tushunilishi yanada samarali bo'ladi.

- 1. Mushk-anbar – atirga o'hshash ifor.
- 2. Kofur-oq rang.
- 3. Ifor-yoqimli hid.
- 4. Harir-yaltiroq
- 5. Sabo-mayin shamol.
- 6. Nasim-mayin shabada.
- 7. Firdavs-Jannat arig'i.
- 8. CHin-Xitoy.

So'ng yangi mavzuni "Bahor vals" musiqasi ostida tariflab so'zlayman.

Bahor tarifida

Sharqdan bahor nasimi esib keldi. Olamni bezamoq uchun firdavs yo'lini ochdi.

Oq rang ketib, bo'z yerni alvon rang qo'ladi, olam o'ziga oro berib bezanmoq taraddudiga tushdi.

Zerikarli qishni bahor nafasi haydadi, musaffo bahor yana o'z hukmiga kirdi.

Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to'n kiydi, oq, sariq, ko'k, qizil rangli harir yo'inchiklar bilan bezandi.

Kitobni ochtirib, matndan uchta gap o'qib beraman, keyin o'quvchilarga ikkita uchttadan gap o'qitaman.

Shundan keyin darslik kitob yo'iladi.

Uchala guruhga so'z boyligimizni sinab ko'rish maqsadida shu mavzu yuzasidan esda qolgan so'zlarini yozishga doir savol beriladi.

1-guruhga "Qushlar nomi";

2-guruhga "Belgini bildirgan so'zlar";

3-guruhga "Hayvonlar nomini bildirgan so'zlar".

O'quvchilarni yozgan so'zlari o'zlariga o'qitiladi va nechttadan so'z yozganligiga qarab ular baholanadilar. So'ng mavzu yuzasidan ularga tezkor savollar bilan murojaat qilinib, ballar jamlanib, rag'batlantiriladilar.

- Demak, bolalar yangi mavzuni ham mustahkamlab oldik.

Uyga vazifa : "Bahor tarifida" ni yaxshilab o'qib, so'zlarga tayyor bo'lib kelish, lug'at so'zlarni yodlash, bahor gullari va qushlarni rasmini chizib kelish.

3.bob Xulosasi.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya asoslarini puxta o'rgatish, keng dunyoqarash va tafakkur ko'lamini hosil qilish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, so'z boyliklarini oshirish, ma'naviy ahloqiy sifatlarni shakllantirish boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsni to'g'ri tashkil qilishga katta e'tibor qaratishi lozim. Zamonaviy ta'limni yo'lga qo'yishda biz uchun manbalar yetarli bo'lib faqatgini uni o'z o'rnida qo'llay bilishimiz dars jarayonini tartibli, izchillikda olib boorish lozim.

Biz yuqorida ko'rib o'tgan bir qator dars ishlanmalari, faqatgina namuna sifatida ko'rsatib o'tilgan. Bu darslarda biz e'tiborimizni omonim, sinonim, antonym, tarixiy va arxaik so'zlarni o'rganishga qaratdik. Darsni har bir o'qituvchi o'zining kasbiy mahorati, malakasidan kelib chiqqan holda turlicha tashkil etishi mumkin.

Ushbu bob bevosita "o'qish" darsi bilan bog'langan bo'lib, o'quvchilar ona tili darsida olgan bilimlarini mustahkamlashga, takrorlashga imkon beradi. Omonim, sinonim, antonim, tarixiy va arxaik so'zlarga oid misollarni o'qish fanlarida juda ko'p uchratish mumkin, bu esa o'quvchilar so'z boyligini oshirishda, ularning bilim sifatini yaxshilashda, ona tilida olgan bilimlarini mustahkamlashda katta yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o'quvchilarni ma'naviy –intellektual jihatdan shakllanishi uzluksiz va uzviy jarayon bo'lib, ayni paytda zamonaviy yondashuvni talab qiladi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish biz o'qituvchilarning darsni qanday va qay tarzda tashkil qilishimizga bog'liq.

Xulosa.

Ish badiiy matnni shakllantiruvchi leksik vositalar, ya'ni omonim, sinonim, antonim, tarixiy va arxaik so'zlardan foydalanib yozilgan. Omonim so'zlar badiiy matnda qo'llanib, o'quvchilar uchun matn voqealarini yanada jozibaliroq va tushunarli yetkazish uchun asos bo'ladi. Umuman olganda omonim, sinonim, antonim so'zlar matnni shakllantiruvchi vositalar sanaladi. O'qish darslarida bu sozlar ustida lug'at shaklida foydalanish esa ta'lim jarayonining uzviyligi hamda ona tili va o'qish darslarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o'quvchilar ona tili darslarida sinonim, omonim, antonim, tarixiy va arxeik so'zlar haqida qisqacha ma'lumot oladilar. Bu ma'lumotlar esa faqatgina ona tili darslaridagina emas, o'qish daarslarida ham mustaxkamlanib borilsa, bu o'quvchilarni ona tilining naqadar boyligi va jozibadorligini anlashga, nutq ravonligiga ham xizmat qiladi. Bunday usulda dars joriy etilishi o'quvchilarni insho, bayon kabi ijodiy ishlarini ham o'rinli, chiroyli usulda bayon etishlarini ta'minlaydi.

Bu usul hozirgi darslarda endilikda qo'llanilayotganligi bilan ham ahamiyatli. Chunki bu ishlarda yoritilgan hamda dars jarayonlarida to'laligicha joriy etilganligi sababli bu mavzu kelgusidagi ta'lim jarayonida keng qo'llashga zamin yaratadi. Ishda omonim, sinonim, antonim, tarixiy va arxaik so'zlarni o'qitish usullari yoritilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilar uchun matnda tushunarsiz bo'lgan so'zlarni tushuntirish va fanlararo aloqalarni mustahkamlash. Shu bilan bir qatorda o'quvchilar lug'at boyligini yanada oshirish va sof ona tilida so'zlashlari uchun zamin bo'la oladi. Ushbu dars ishlanmalarini tuzishda mohir pedagoglarning dars ishlanmalaridan foydalanildi. Ushbu dars ishlanmalar ta'lim samaradorligini oshirishga hizmat qiladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. T. Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. “Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori” Toshkent- 1997.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – “Sharq”, 1997.
2. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim jurnali. Toshkent. 2005. 5-son.
3. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2010

Darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Abdullaeva. Q, Yusupov S, Rahmonbekova S O'qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. T, O'qituvchi, 2010
2. E Qilichev Badiiy tilning tasviriy vositalari T. 1982
3. Ikromova I. R, G'ulomova H, Yo'ldosheva SH, Shodmonqulova D. 4-sinf Ona tili. darsligi. Toshkent. “O'qituvchi”. 2011.
4. M. Yo'ldoshev Q. Yodgorov Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish T. 2007
5. M. Yo'ldoshev Q. Yodgorov Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish T. 2007
6. Nurmonov A va boshqalar Hozirgi o'zbek adabiy tili T. 2002
7. Qosimova K, Matchonov S Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent,O'qituvchi, 2009
8. G'afforova T Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. Tafakkur. 2011

9. G'ulomova H, Yo'ldosheva SH, SHernatova U. 4-sinfda ona tili darslari. Toshkent. O'qituvchi .2003.
10. Sh. Rahmatullaev N Mamatova R Shukurov O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati T. 1980
11. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent, "Moliya" nashr. 2003 yil.
12. A. G'ulomova, M.Qodirova " Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent - 2001
13. Sh. Akramov, M. Boshmonov, M. Mamadieva "Hozirgi o'zbek adabiy tili fanidan konspektiv kurs" Farg'ona-2004
14. Ochil Roziqov, M. Mahmudov, B. Adizov, A. Hamroev "Ona tili didaktikasi"
15. M. Siddiqov, Z. Yunusova " Til va adabiyot ma'rifati" Toshkent -2009
16. E. Abdurahmonova O'yin vositasida o'quvchilar bilimini mustahkamlash. Toshkent, "O'qituvchi". 1985 yil.
17. T. S. Usmonxo'jaev, M. M. Rahimov, A. N. Abdiev. O'zbek xalq harakati o'yinlari. Toshkent, "O'qituvchi". 2004 yil.
18. O'.Yo'ldashev. Pedagogika sxema va jadvallarda. Toshkent, 2011 yil.
19. Usmonova N. "Ta'limdagi ilg'or texnologiyalar. Toshkent, 2008 yil.
20. Asrorjon Mahmudjonov, Odiljon Parpiev. Ona tili darslarida o'quvchilar faolligini oshirish. Toshkent, 2011 yil.
21. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: O'qituvchi. – 1974

Ilmiy jurnallardagi maqolalar

1. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali 2013-yil 8-9 son, 2014 –yil 2-son.
2. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali 2013-yil 5-son.
3. "Xalq ta'limi jurnali" 2013 yil 6-son.

Internet saytlari

www.ziyonet.uz, www.google.ru, www.yandex.ru